

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi
instituti**

**«Donni saqlash va
qayta ishlash texnologiyasi»
kafedrasi**

*Boboev S.D.
Ergashyova H.B.*

**OMIXTA YEM TEXNOLOGIYASI
fanidan**

MA`RUZALAR MATNI

Buxoro –2008

Tuzuvchilar: dots. Boboev S.D.
dots. Ergasheva X.B.

Ushbu ma`ruzalar matni “Donni saqlash va qayta ishlash texnologiyasi” kafedrasining majlisida 13.05.2008 y. №10 majlis bayoni bilan ko`rib chiqildi va institut uslubiy Kengashining 20.05. 2008 y. №6 majlis bayoni bilan tasdiqlangan.

Taqrizchilar: "NQMT" kafedraasi dotsenti, t.f.n. Atamuratova T.I.
Buxorodonmahsulot X/J raisi o`rinbosari Shodiev M.

O`zbekiston Respublikasi zamonaviy komplekt jixolangan yuqori unumdorli omixta yem zavodlari mavjud. Hozirgi vaqtda respublikamizda omixta yem tsexlari ham qurilmoqda. Zamonaviy omixta yem zavodlari yuqori darajada mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan, ish sur`ati yuqori suratda uzluksiz bajaradigan korxona turiga kiradi. Chet mamlakatlaridagi omixta yem zavodlarida qo`llaniladigan texnologik jarayonlar faqatgina shu jarayonda qo`llanadigan mashina konstruktsiyalari bilan farq qiladi.

Bugungi kunda respublikamizda ko`proq yirik shoxli hayvonlar, cho`chqalar va parrandalar uchun omixta yemlar tayyorlanadi va bu maqsadga asosan mahalliy xom ashyo turlari preparatlar, fermentlar, mikroqo`shimchalardan ham ko`p foydalanishadi.

Mundarija

Mavzu №1. Kirish qismi. Omixta yem ishlab chiqarish bo'yicha umumiy ma'lumot.....	4
Mavzu №2. Omixta yem assortimenti va uni ishlab chiqarishda qo'llaniladigan xom ashyo tavsifi.	12
Mavzu № 3. Omixta yem ishlab chiqarish texnologiyasi	33
Mavzu № 4. Omixta yem ishlab chiqarish texnologik jarayonning printsiptal xiyemasi.	85
Mavzu № 5. Oqsil-vitaminli qo'shimchalar, pryemikslar, karbamid kontsentratlari, ozuqa aralashmalarini ishlab chiqarish va ularning retseptlarini tuzish.	90
Mavzu № 6. Qishloq xo'jalik hayvonlarining zaharlanishi va ularning oldini olish yo'llari.....	97

Mavzu №1. KIRISH. OMIXTA YEM ISHLAB CHIQUARISH BO`YICHA UMUMIY MA`LUMOT

Reja:

- 1.1. Kirish.
- 1.2. O`zbekiston respublikasi va chet mamlakatlarda omixta yem ishlab chiqarish sanoatining rivojlanish istiqboli.
- 1.3. Ozuqa va omixta yemning umumiy tafsiloti.
- 1.4. Omixta yem turlari.
- 1.5. Omixta yemning kimyoviy tarkibi.
- 1.6. Yemdagi turli to`yimli moddalarning ahamiyati.
- 1.7. Omixta yemning ozuqa qiymatini baholash.
- 1.8. CHorva mollarini oziqlantirishni me`yorlashtirish.
- 1.9. Omixta yem zavodlaridagi texnologik jarayonlarning umumiy tavsifi.
- 1.10. Texnologik jarayonlar va ularning samaradorligi haqida tushuncha.

Adabiyotlar ro`yxati

- 1.Yog`orov G.A. Texnologiya muki, krupi i kombikormov. M.: Agropromizdat, 1986 y.
- 2.Mionchinskiy P.N., Kojarova L.S. Proizvodstvo kombikormov. M.: Agropromizdat, 1991 y.
- 3.Kalashnikov A.P. va boshqalar. CHorva mollarini oziqlantirish normalari va ratsionlari. T.: Mexnat, 1988 y.

1.1. Kirish

Aholini oziq – ovqat mahsulotlariga sanoatning esa xom ashyoga bo`lgan talabi kundan – kunga ortib bormoqda. Buni to`la kondirish uchun qishloq xo`jalik ishlab chiqarishini xususan uning asosiy sohasi bo`lgan chorvachilik uzluksiz ko`tarib borish kerak. Omixta yem ishlab chiqarishi mamlakatimizda yildan yilga oshib bormoqda. Uning assortimenti kengayib biologik samaradorligi oshib bormoqda. Omixta yem sanoatining tezkor rivojlanishi, rivojlangan sohaga aylanishi omixta yemdan foydalanishning katta iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Hayvonlarning me`yoriy hayot kechirishi uchun barcha moddalar kerak. Bu esa ularning organizmiga 50 ga yaqin kimyoviy element topilgan bo`lib, bo`lar: azot, uglerod, yod kolalit, kislorod, kaltsiy va boshqalar. Ulardan 95% massasi bo`yicha uglerod, kislorod vodorod va azodga to`g`ri keladi. Xuddi shunday tarkib o`simliklarda ham uchraydi. Bu to`rt element hayvon organizmida va o`simlikda turli nisbatlarda bo`ladi va ko`pgina moddalarni hosil qiladi. Hayvon organizmining normal o`sish va rivojlanishi uchun tarkibida kerakli miqdordagi moddalarni saqlagan ozuqa yetkazib berish omixta yem zavodlarining asosiy vazifasiga kiradi.

1.2. O`zbekiston respublikasi va chet mamlakatlarda omixta yem ishlab chiqarish sanoatining rivojlanish istiqboli.

O`simlik va hayvonlardan olinadigan mahsulotlar, shuningdek mineral moddalar qishloq xo`jalik hayvonlari uchun ozuqa bo`lib hisoblanadi. CHorvachilik amaliyotida ozuqa ularning kelib chiqishidan, konsistentsiyasi va ozuqaviyligidan

bog`liq holda dag`al, sersuv, kontsentrlangan, mineralli va turli ishlab chiqarish chiqindilariga bo`linadi.

Yemdagi foydalanishda uning foydalanishda uning samaradorligini yanada oshirish uchun iular bilan hayvonlarni aloxida bokish orqali emas, balki omixta yem ko`rinishidagi yemlar bilan bokkanda erishish mumkin. Omixta yem retseptga mos ravishda 6 – 12 turladagi turli ozuqa mahsulotlari (komponentlar, ingredientlar) ni natijasida olingan mahsulotlardir. Omixta yem ishlab chiqarish uchun qo`llaniladigan ingredientlar tozalanadi, qobiqsizlantiriladi va kerak bo`lsa maydalanadi, sungra ular me`yorlanadi va aralashtiriladi.

Omixta yem qishloq xo`jalik hayvonlarining, uy parrandalari va baliqlarning turi, yemi va boqilish maqsadidadan bog`liq holda ishlab chiqariladi. Omixta yemda uy hayvonlari uchun kerak bo`lgan miqdorda barcha ozuqa moddalari mavjud.

Ratsionga omixta yem kiritilsa, hayvonlarning, parrandalar va momiq hayvonlarning mahsuldorligi sezilarli darajada ortadi, ular yaxshi o`sadi va rivojlanadi, hayot faoliyati oshadi. Agar hayvon va parrandalarning kunlik ratsioni doimo bir xil bo`lsa, bunda ularning mahsuldorligi tushadi, yosh hayvonlarning o`shishi va rivojlanishida orkaga kolishi, hayot faoliyatining sekinlashuvi kuzatiladi, hamda turli kasalliklarga uchrashi ortadi.

Omixta yem ishlab chiqarishni ko`paytirish orqali qishloq xo`jalik hayvonlarining mahsuldorligini oshirishga erishiladi, ya`ni hayvonlarning vazni ortadi, tovuklarning tuxum qo`yishi ko`payadi, sigirlardan olinadigan so`tning miqdori va sifati ijobiy o`zgaradi va boshqalar.

Omixta yemdan to`g`ri foydalanish chorvachilikda mahsulot tannarxini kamayishiga ta`sir ko`rsatadi.

1.4. Omixta yem turlari

Fizikaviy holati bo`yicha omixta yemning quyidagi turlari mavjud: sotiluvchan, briketlangan, donalar va galet ko`rinishidagi yemlar.

Sochiluvchan omixta yem etarlicha bir xil maydalangshan mahsulotdir. Sochiluvchan omixta yem ishlab chiqarishda ingredientlar byog`ona aralaashmalardan tozalanadi, qobiqsizlantiriladi, maydalanadi. SHunchaday qilib tayyorlanadigan ingredientlar me`yorlagich va arlashtirgich orqali o`tkaziladi.

Briketlangan omixta yem odatda to`liq ratsionli holda ishlab chiqariladi. Briketlar sakkizburchak shaklli bo`lib, uzunligi 160 – 170 mm, kengligi 70 – 80 mm, kalinligi 30 – 60 mm. Ularni ishlab chiqarish uchun maydalangan ingredientlar bilan maydalangan pichan aralashmasi tayyorlanadi. Olingan okuvchan massa maxsus aralashtirgichga tushadi, va bir vaqtning uzida undan me`yorlangan va tarkok melassa ham uzatiladi. Maydalangan ingredient, pichan va melassa aralashmasidan tashkil topgan massa presslarga tushadi va briketlanadi.


Donador (granulali) omixta yem ma`lum diametr va balandlikka ega bo`lgan uncha katta bo`lmagan tsilindrlarning iborat bo`lgan granula deb ataluvchi okuvchan massani namoyon qiladi. Granulalar ishlab chiqarishda 2 ta: quruq va ho`l usul qo`llaniladi. Granulali omixta yem odatda parrandalarni va xovuz baliqlarini bokishlar uchun ishlatiladi.

Galetlar. Teshikli to`g`ri burchak shaklidagi lepyoshka ko`rinishida bo`ladi. Galet ishlab chiqarish uchun avval soluvchan omixta yem olinadi, sungra undan achitqili hamir koriladi, galetlar pishiriladi va kuritiladi.

Uzidan tarkibi va yem – xashak qiymati bo'yicha omixta yem 2 ta asosiy guruxga bo'linadi: to'liq ratsionli va kontsentratlar.

1.5. Omixta yemning kimyoviy tarkibi.

Normal hayot kechirish uchun zarur bo'lgan taxminan barcha moddalarni hayvonlar ozuqa moddalar orqali oladi. Hayvonlar tanasida kimyoviy elementlarning 50 tasi topilgan: azot, uglevod, vodorod, kislorod, kal'tsiy, fosfor, natriy, kaliy, oltingugurt, temir, yod, kobaol't, mis, marganets va boshqalar. Ularning ogirligi bo'yicha 95 foizi ugleroshd, kislorod, vodorod va azotga to'g'ri keladi. O'simliklar ham shunga uxshash tarkibga ega. Hayvonlar organizmi va o'simliklardagi turli turt element turli nisbatlarda bo'lib, ko'plab moddalarni hosil qiladi. Bu moddalar guruxlarga jamlangan bo'lib, ular quyidagi sxemada keltirilgan.(1 – rasm.).



Rasm – 1. Omixta yemning kimyoviy tarkibi.

1.6. Yemdagi turli to'yimli moddalarning ahamiyati.

Quruq modda. Hayvonlarni normalashtirilgan oziqlantirishni tashkil yetishda ularning quruq moddalarga bo'lgan ehtiyojini va ratsiondagi quruq modda miqdorini hisobga olish lozim. Oziq yoki ratsiondagi quruq moddaning miqdori to'yimlilikdan dalolat buruvchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Quruq moddaning iste'mol etilishi ko'plab omillarga bog'liq; ratsionligi oziqalarning turli – tumanligiga, ratsion strukturasiga (oziqlantirish tipiga), energiya kontsentratsiyasiga, oziqlarning sifatiga, ularning ta'm va fizik xossalariga, ularni yemishga tayyorlashga, mollarning mahsuldorlik darajasiga to'yimli moddalarning qay tarzda hazm bo'lishiga va hokazolarga bog'liq.

Ratsionlagi quruq moddaning hazm bo'lishi ancha qiyin bo'lsa, hayvonlar, ayniqsa yuqori mahsuldorli mollar uni shuncha kam iste'mol qilishadi. Masalan, sog'in sigirlarni oziqlantirishda ratsiondagi hazm bo'ladigan quruq modda miqdori, kamida 60 protsenti tashkil yetishi kerak. Ratsiondagi quruq moddaning hayvonlar tomonidan iste'mol etilishi, bundan tashqari, ratsion tarkibi va uning zurur to'yimli

moddalar bilan balanslashtirilganiga ham bog`liq. Bu to`la qiymatli oziqlantirishning asosini tashkil etadi.

Sermahsul sigirlar ratsionning 1 kg quruq moddasiga teng keladigan energiya kontsentratsiyasiga ko`proq talabchan bo`ladi.

Almashinuvchi energiya va oziq birliklari. energiya almashinuvining manbai sifatida oziq bilan hayvon organizmiga qabul qiluvchi uglevodlar, yoglar va proteinlar hisoblanadi. energiya almashinuvining miqdori ratsiondagi asosiy to`yimli moddalar, ularning hazm bo`lish va uzlashtirish nisbatiga va kontsentratsiyasiga bog`liq bo`ladi.

CHorva mollarini oziqlantirishning yangi normalarida ularning energiya almashinuviga bo`lgan ehtiyoji bilan birgalikda vaqtincha energiyani suli oziq birligida normalashtirish ham koldirilgan.

Protein. Hayvonlarni to`yimli oziqlantirishda protein juda katta ahamiyatga ega. Har bir tirik organizmning asosiy tarkibiy qismini oqsillar tashkil etadi. hayvonlarning tiriklik faoliyati ular organizmida oqsil moddalarning vujudga kelishi va parchalanishi bilan bog`liq bo`ladi. Sigirlar uz tanasi oqsilini va so`t oqsilini vujudga keltirish uchun oziq bilan etarli miqdorda oqsil ham qabul qilishlari lozim. Proteinlar deb nomlangan oziq oqsilining sifati turlicha bo`ladi.

Ho`l protein tarkibida oqsillar va amidlar, ya`ni oqsil harakteriga xos bo`lmagan azotli birikmalar mavjud bo`ladi. Oziqlarda aminokislotalar faqat oqsil tarkibida uchramasdan, balki erkin holatda ham uchraydi. erkin aminokislotalar zootexnika analizi bo`yicha amidlarning shartli gruppalariga kiradi.

Ayrim aminokislotalar almashmaydigan bo`lib hisoblanadi, ya`ni oziqalarda ular urnini boshqalari koplay olmaydi va ularning yetishmasligi hayvonlar mahsuldorligining pasayishiga modda almashinuvining buzilishiga olib keladi. Almashmaydigan aminonokislotalarga lizin, triptofan, gistidin, leytsin, izoleytsin, fenilalanin, treonin, metionin, valin, arganin kiradi. Bu kislotalar hayvon organizmida boshqa azotli moddalardan hosil bo`lmaydi. Ular hayvonlar organizmiga faqat oziq bilan qabul qilinadi. Bu aminokislotalarga kam miqdorda yoki umuman ega bo`lmagan proteinlar to`liqsiz qiymatli, deb nomlanadi.

Ba`zi aminokislotalar, masalan glitsin, serin, tsistin, prolin, tirozin esa hayvon organizmida oziq bilan qabul qilingan azotli birikmalardan hosil qilishi mumkin.

Kavsh qaytaruvchi mollarda almashmaydigan aminokislotalar mikroorganizmlar tomonidan old oshkozonda hosil qilinadi. SHuning uchun ham bunday hayvonlar oshkozon bilan kamerali hayvonlar va parrandalarnikiga nisbatan protein sifatiga kam ta`sirchan bo`ladi. Sermahsul qoramollarning ovqatlanishida metionin, triptofan va lizining ahamiyati nixoyatda kattadir. Cho`chqalarni oziqlantirishda lizin va metionin miqdorini tsistin bilan normalashtirish lozim.

Erkin aminokislotalardan tashqari amidlar gruppasi tarkibiga azot saklovchi glyukoizdlar, aminokislotalarning amidlari, organik asoslar, nitratlar va ammiak tuzlari kiradi. Amidlarning to`yimliligi turlichadir. Aminokislotalar to`yimliligi bo`yicha oqsillarga yaqin tursa, ular amidlarining to`yimliligi esa past bo`ladi. YAshil, silos va ildizmevali oziqlarda protein umumiy miqdorining 25 – 30 protsenti va undan ko`progi amidlar xissasiga to`g`ri keladi, omixta yemlarda esa protein asosan oqsillarga iborat bo`ladi.

Kavsh qaytaruvchi hayvonlarda oziqning azotli moddalarini uzlashtirishda katta korin va undagi bakteriya va infuzoriyalarning roli kattadir. Bu mikroorganizmlar oziqlanish uchun hayvon ovqatidagi azotli moddalardan, uglevodlardan va mineral moddalardan foydalanishadi. SHuni ham aloxida kayd qilish kerakki, bakteriyalar azotli moddalardan ammiakni uz tanasining oqsilini hosil qilish uchun foydalanishadi.

Xalok bo'layotgan bakteriyalar ximusga kushilib oshkozonga va ichakka tushadi va parrchalanmagan oziq proteini bilan birgalikda hazm bo'ladi.

Ba'zi hollarda ammiakning ma'lum qismini bakteriyalar uzlashtira olmaydi va bunda ammiak katta korin devori orqali konga suriladi. Jigarda bu ammiak mochevinaga aylanadi va ma'lum vaqt buyrakda ushlanib turgandan keyin siydik bilan tashqariga chiqariladi. Bundan tashqari, mochevinining ma'lum qismi sulak bilan ajratiladi.

Ammiakning katta korinda hosil bo'lishi ko'p omillarga: ratsiondagi protein miqdoriga, oqsilli va oqsilsiz azot nisbatiga, azotli moddalarning eritish darajasiga, azotli moddalarning va yengil hazm bo'luvchi uglevodlarning nisbatiga bog'liq. Kand va kraxmalning etarli miqdorda bo'lishi mikroorganizmlar faoliyatini tezlashtiriladi.

Qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirishning yangi normalarida ularning xom va hazm bo'luvchi proteinga bo'lgan ehtiyoji hisobga olingan.

Uglevodlar. Uglevodlar o'simlik oziqalari quruq moddalarining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, xayvolar uchun asosiy energiya manbai bo'lib hisoblanadi. Zootexnika analizi bo'yicha barcha uglevodlar ikki gruppaga: xom kletchatkaga va avzotsiz ekstrakt moddalarga bo'linadi.

Xom kletchatka uzlik kletchatkadan (tsellyo'loza), gyemitsellyo'loza qismlaridan va naksh beruvchi moddalar (lignin, ko'tin, suberin)dan tashkil topadi. tsellyo'loza o'simlik xujayralari pustlogining asosini tashkil etadi. O'simliklarning rivojlanishi bilan tsellyo'loza lignin moddasi bilan tuyintirila borishi okibatida xujayra devorlari kotib koladi. Gyemitsellyo'loza, pentaza va geksoza kandlaridan iborat bo'ladi va o'simlik xujayralarining pustlogidagi zapas to'yimli modda bo'lib koladi.

Azotsiz ekstrakt moddalarga kand, kraxmal, gyemetsellyo'lozalarning ma'lum qismi, inulin, anorganik kislotalar, glyukozidlar va boshqa moddalar kiradi. Bo'lardan hayvonlarning ovqatlanishida kandlar va kraxmal katta ahamiyatga ega. Kraxmal o'simlikdagi rezerv manba bo'lib hisoblanadi va u ko'plab miqdorda o'simlik uruglarida, mevalarda va tugunaklarda va kam miqdorda o'simlik barglari va poyalarida uchraydi. Kandalar oziqlarda asosan gulyukoza, fruktoza, mal'toza, saharoza, shakllarida uchraydi. So'tda laktoza yoki kandi, jigarda glikogen mavjud.

Azotsiz ekstrakt moddalar, xususan kandlar va kraxmal faqat hayvonlar uchun to'yimli modda bo'lib kolmasdan, balki hayvonlarning old oshkozonida mavjud mikroorganizmlar uchun ham to'yimli modda bo'lib hisoblanadi va ular tomonidan bakterial oqsilni hosil qilishda foydalaniladi.

Uglevodlar hayvonlarning katta korniga kand, kraxmal, gyemitsellyo'loza, tsellyo'loza va ayrim boshqa birikmalar shaklida qabul qilinadi. Murakkab uglevodlarning katta korin mikroorganizmlari oddiy kandlargacha parchalaydi va ular uz navbatida uksus, moy, propion va boshqa kislotalargacha bijgiydi. Kandlar hayvonlar va ularning katta korini mikroorganizmlari uchun juda yaxshi energiya

manbai bo`lib hisoblanadi. Hayvonlarning ratsionida kandlar kand bilan proteinning eng yaxshi nisbatida ularning old oshkozonida mikrofloraning rivojlanishi uchun juda kulay sharoit yaratiladi, aminokislotalarning, yog` kislotalarning va V gruppada vitaminlarining katta korindagi sintezi yaxshilanadi.

Kraxmal ratsiondagi asosiy energiya manbalardan biri bo`lib, organizmda kandlar bilan bir xil vazifa bajaradi.

Kletchatka katta korinda ovqat hazm qilishni normallashtirish vasifasini bajaradi. U old oshkozonidagi va ichakning yugon bo`limidagi mikroorganizmlar ta`sirida parchalanadi. Ratsiondagi kletchatka kavsh qaytaruvchi hayvonlar so`tining tarkibidagining tarkibidagi oshishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Lekin kletchatkaning hayvonlar ratsionidagi oshikcha miqdori to`yimli moddalarning hazm bo`lishini va ulardan foydalanish samarasini pasaytiradi.

**Yog`lar.** Oziqlar zootexnika aniliz qilinganda ulardagi xom yog` ham aniqlanadi. Xom yog`ga xakikiy yog`dan tashqari mum, xlorofill, smola (o`simlik shirasi), rang beruvchi moddalar, organik kislotalar, fosfatitlar, sterin va boshqa birikmalar kiradi. Yog`lar tarkibida turlicha birikuvda uglerod, vodorod va kislorod bo`ladi. Yog`lar tarkibida boshqa to`yimli moddalarga nisbatan kislorodning kam va uglerod hamda vodorodning ko`pligi tufayli ular oksidlanish jarayonida uglevodlarga nisbatan 2,25 marta ko`p energiya ajratadi. SHuning uchun ham yog`lar yuqori kaloriyaga egadir.

Yog`larning roli faqat ularning energiya qiymati bilan chegaralanib kolmaydi. Yog`lar struktura ashyosi sifatida xujayralarning protoplazmasi tarkibiga kiradi. Ayrim yog` kislotalari (linol, araxidon, linomen) hayvonlarning o`sish va rivojlanishida, modda almashinuvi protseslarining normal kechishi uchun zarurligi tufayli ular tomonidan oziqa bilan birga qabul qilinishi shart. Oziq yog`ining o`rtacha miqdori hayvonlarning yaxshi ishtaxasi, ovqat hazm bo`lishi va ichakka surilishini normallashtirish uchun muhimdir. Ovqat yog`i bilan birga organizmga yog`da eruvchi vitaminlar qabul qilinadi.

Oziqlarda yog`ning yetishmasligi tufayli hayvonlar organizmi yog`da eruvchi A.D.E.K vitaminlari tanqisligiga uchraydi.

Mineral moddalar. Mineral moddalr energetik qiymatga ega bo`lmasalarda chorva mollarini oziqlantirishda juda katta ahamiyatga ega. CHunki ular organizmda o`tayotgan modda almashinuvining barcha jarayonlarida aktiv ishtirok etadilar.

Hayvonlarni maqsadga muvofiq oziqlantirishni tashkil etishda ratsiondagi kal`tsiy, fosfor, natriy, xlor, magniy kaliy, oltingugurt, temir, rux, marganets, mis, kobal`t, yod miqdorini normalashtirish lozim. Ayrim hollarda esa ratsiondagi ftor, brom, selen, molibden miqdorini ham hisobga olish shart. Bundan tashqari, keyingi yillarda tashqi muhitning ifloslanishi va qo`shimcha oziqa ishlab chiqarishda ximik va mikrobiologik texnologiyaning qo`llanilishi tufayli ratsionlagi simob, qo`rg`oshin, strontsiy miqdorini ham hisobga olish muhim ahamiyatga kasb etmoqda.

Hayvonlarni to`la qiymatli oziqlantirishni tashkil etishda mineral moddalarning bir – biri bilan va boshqa ovqatlantirish omillari bilan murakkab aloqada ekanligini ham hisobga olish lozimdir. Kal`tsiy, fosfor va magniy o`rtasida, rux bilan mis, kaliy bilan magniy, natriy bilan kaliy, mis bilan temir, oltingugurt, mis bilan molibden o`rtasida juda yaqin bog`liqlik borligi aniqlangan.

Hayvonlarning mineral moddalarga bo'lgan ehtiyoji juda ko'p omillarga, avvalo ayrim eleymentlarning almashinuv jarayonida bir – biriga munosabatiga, ularning surilish va ajratilish darajasiga, organizmda tuplanish miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Vitaminlar. Vitaminlar organizmning normal faoliyatini ta'minlash, hayvonlarning soglom o'sishi, ularning yuqori mahsuldorligi va qayta ishlab chiqarish funktsiyalari faoliyatini normallashtirish uchun juda zarur hisoblanadi. CHorvachilikni jadal rivojlantirishda vitaminlarning roli ayniksa kattadir. Agar ratsionda biron bir vitamin yetishmasa, mollarning mahsuldorligi pasayadi va ular organizmida modda almashinuvining buzilishi kuzatiladi.

Kavsh qaytaruvchi hayvonlarni oziqlantirishda karotin, vitamin A (renitol), D (kal'tsiferol), E (tokoferol) normallantiriladi. Cho'chqalarni vitaminli ovqatlantirishni normallashtirishda vitamin A (renitol) eki karotin, D₂ (ergakal'tsiferol) E (tokoferol'), V₁ (tsiamin) V₂ (riboflavin), V₃ (pantoten kislotasi), V₄ (xolin), V₅ (nikatin kislotasi), V₁₂ (tsianokobalamin), muhim ahamiyatga egadir.

Parrandalarni oziqlantirishda yuqoridagi vitaminlardan tashqari ratsion qo'shimcha ravishda K (naftoxinon), V₆ (pirodoksin), V₅ (foliy kislotasi), S (askorbinka kislotasi), va V₇ (biotin kislotasi) vitaminlari bilan ham normallashtiradi.

1.7. Omixta yemning ozuqa qiymatini baholash.

Qishloq xo'jalik hayvonlari va kushlarning me'yorlangan ozuqasining ilmiy asoslari.

Omixta yemning ozuqa qiymatini baholash omixta yemning hazm bo'lishi hayvonlar ustida bajariladigan maxsus tajribalar asosida aniqlanadi. Omixta yemning aloxida ozuqa moddalarning hazm bo'lishi foizlarda ifolanadi. Turli hayvonlarda hazm qilish apparatining tuzilishi turlicha. SHuning uchun aloxida turdagi hayvonlarning bir xildagi omixta yemni hazm qilish har xil. Har bir omixta yemning ozuqa qiymati oziqlantirishning oxirgi natijasi, ya'ni mahsuldorligi bilan tavsifladi.

Omixta yemning va ozuqa mahsulotlarning ozuqa qiymati ozuqa birligi hisoblanadi va u namligi 13%, hajmiy ogirligi 450 – 480 g/m³ bo'lgan 1 kg sulining ozuqa qiymatiga ekvivalentdir.

Omixta yemning sifati davlat standartlari va texnik shartlar asosida me'yorlashtiriladi. Omixta yemning belgilanishiga kura (yirik shoxli hayvonlar, buzoklar, gushtga boqiladigan cho'chqalar, jujalar, tuxum qo'yuvchi tovuqlar va boshqalar uchun) undagi hamda turli ozuqa mahsulotlarning ozuqa qiymati keng doirada o'zgaradi 1 – jadval. Har xil turdagi va yoshdagi hayvonlarning omixta yemiga aloxida komponentlarning maksimal kiritilish me'yorlari urnatilgan.

1.8. CHorva mollarini oziqlantirishni me'yorlashtirish.

CHorvachilikni rivojlantirishda va oziq ishlab chiqarishda mamlakatimiz turli zonalarining tabiiy va iqtisodiy sharoitlari turli xildir. CHorva mollarini oziqlantirish tiplari va tipovoy ratsionlari ishlab chiqarishda shu sharoitlar hisobga olindi. Oziqlantirish tipi ratsionlarning strukturasi, ya'ni ular tarkibiga kiruvchi turli oziq gruppalarining solishtirma oziqligi (ozuqa birligi bo'yicha) bilan harakterlanadi. Oziqlantirish tipining nomi odatda ratsionda qaysi oziqning yoki oziq gruppalarinning ko'pligi bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda turli zonalarida qoramollar uchun quyidagi oziqlantirish tiplari qo'llaniladi: pichanli, silosli, kontsentrat, silosli – pichanli, silosli – ildizmevali,

silosli – jomli (turpli), silosli – senajli, silosli – senajli – kontsentratli va hokazo. YOz davrida oziqlantirish tiplari asosan yashil oʻtlarning, silosnigo va omixta yemlarning kushilishlar bilan belgilanadi. Bu davrda yashil oʻtli, oʻtli – silosli va oʻtli – kontsentratli oziqlantirish tiplari koʻp tarkalgandir.

CHorva mollarrini oziqlantirish tiplari dexkonchilik va oziq ishlab chiqarish sistyemalari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, sistyemalarining rivojlanishida hamda takomilashishida muhim ahamiyat kasb etadi. Karamol va qoʻylarning oziqlantirish tiplarigva tabiiy pichanzorlar va yaylovlarning mavjudligi katta taʼsir koʻrsatadi. Har qanday oziqlantirish tipi baholanganda uning hayvonlar mahsuldorligi, jumladan, mahsulot sifatiga taʼsiri, hayvonlarning salomatligiga ularning qayta ishlab chiqarish funksiyalariga taʼsiri va iqtisodiy samarasiga hisobga olinadi.

Ratsion – oziqlantirish tipining konkret ifodachisidir. Agar ratsionlar turli oziqlarning tirlashuvi va solishtirma ogirligi boʻyicha ilampiy asoslangan tipga toʻgʻri kelsa va zona shart –sharoitlarini kanoatlantirsa, ular tipovoy ratsionlar deb ataladi. Har qanday tipovoy ratsion – uning toʻyimligi boʻyicha boʻyicha hayvonlarning extiejiga karab asosiy toʻyimli moddalar bilan balanslanganligiga binoan baholanadi. Tipovoy ratsionlar yuqori mahsuldorligini, qayta ishlab chiqarish funksiyasining normal faoliyatini va oziqni mahsulot bilan yaxshi taʼminlashi kerak. SHuning uchun ham chorvachilikni sanoat nyogʻiziga kuchirishda tipovoy ratsionallarning ilmiy muassasalar ishlab chiqadi, xoʻjalik sharoitida esa moʻtaxassislar maxaliy sharoitlarni hisobga olgan holda ularga tuzatish kiritishlari mumkin.

1.9. Omixta yem zavodlaridagi texnologik jarayonlarning umumi y tavsifi.

Omixta yem ishlab chiqarish taxnologik jarayoni quyidagi asosiy jarayonlardan tashkil topgan: xom ashyoni qabul qilish, joylashtirish, saqlash va uni qayta ishlashga uzatish; xom ashyoni ajratish; metalmagnit aralashmalardan tozalash; baʼzi turdagi omixta yemni ishlab chiqarishda qobiqli don ekinlarini kobigidan ajratish; komponentlarni maydalash; maydalangan mahsulotni elash (nazorat qilish); komponentlarni ulchash va aralashtirish, donadorlash; tayyor omixta yem mahsulotlarini kadoklash va uzatish.

1.10. Texnologik jarayonlar va ularning samaradorligi haqida tushuncha.

Omixta yem ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlar xuddi un va yorma ishlab chiqarishdek, meʼyoriy – texnik hujjatlarga muvofiq belgilanadi. Asosiy hujjatlar boʻlib omixta yem, oqsil vitaminli qoʻshimchalar, pryemikslar hamda karbamid kontsentratlari ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini tashkil qilish va boshqarish qonunlari hisoblanadi. SHu hamda boshqa hujjatlar asosida korxona texnik sxyemasi ishlab chiqiladi.

Jarayon – bu qoʻyilgan maqsadga erishish uchun maʼlum harakatlar majmuasi boʻlsa, texnik jarayon bu - xom ashyoga ishlov berish natijasida tayyor mahsulotni olish jarayonidir.

Texnologik jarayonining samaradorligi xom ashyodan mahsulot tayyorlashga sarflangan energiyaning foydalanish darajasi bilan baholadi. Bu samaradorlikka qayta ishlaydigan xom ashyoning texnik xossalari, texnik jarayonlarning tuzilishi, jixoz va uskunalarning ish rejimlari, taʼsir koʻrsatadi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Mamlakatimizda omixta yem ishlab chiqarish sanoati qanday rivojlanmoqda?
2. Omixta yemning umumiy tafsilotini va turlarini keltiring.
3. Omixta yem qanday kimyoviy tarkibga ega?
4. Yemdagi to'yimli moddalarning ahamiyati nimadan iborat?
5. Omixta yem zavodlaridagi texnik jarayonlarning umumiy tavsifini izohlang.

Tayanch iboralar.

Omixta yem, omixta yem turlari, sochiluvchan, briket, donador va galet ko'rinishidagi yemlar, to'liq ratsionli omixta yem, omixta yem konsentratlari, ratsion, ozuqa birligi, almashinadigan energiya, ho'l kleykovina, ho'l protein, ratsion, texnologik jarayon, texnologik jarayonning samaradorligi.

Mavzu №2. OMIKTA YEM ASSORTIMENTI VA UNI ISHLAB CHIQARISHDA QO'LLANILADIGAN XOM ASHYO TAVSIFI.

Reja:

- 2.1. Omixta yem korxonalari assortimenti.
- 2.2. Omixta yem uchun ishlatiladigan xom ashyoning turlari.
- 2.3. Donli xom ashyo tavsifi.
- 2.4. Kunjara va shrot.
- 2.5. Lavlagi shakari, kraxmal qiyomi va gidroliz ishlab chiqaruvchi sanoat chiqindilari.
- 2.6. Hayvonlardan olinadigan ozuqa xom ashyosi.
- 2.7. Mineral xom ashyolar, mikroelementlar.
- 2.8. Karbamid va karbamid konsentratlari.
- 2.9. Pichan, somon va pichan uni.
- 2.10. Xom ashyo xossalari.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mionchinskiy P.N., Kojarova L.S. Proizvodstvo kombikormov. M.: Agropromizdat, 1991 g.
2. Yog'orov G.A. Texnologiya muki, krupi i kombikormov. M.: Agropromizdat, 1986 g.
3. Maznik A.P. Xazina Z.I. Spravochnik po kombikormam. M. Kolos, 1982 g.
4. Kropp L.I., Genkin G.S. Mejxozyaystvennie kombikormovie zavodi. M. Kolos, 1975y.

2.1. Omixta yem korxonalari assortimenti.

Omixta yem sanoati bir necha turdagi mahsulot ishlab chiqarib, ular tayyor yem eki keyin tayyorlaydigan omixta yemning tarkibiy qismi.

Omixta yemning tarkibi har xil tur va guruxdagi hayvonlar uchun retsept asosida aniqlanadi. Ba'zi turdagi qishloq xo'jalik jonivorlariga (yirik shoxli hayvonlar, qo'ylar) dag'al va sersuv ozuqalardan tashqari omixta yem konsentratlari beriladi.

Aloxida mahsulotlarni kimyoviy tarkibi, xususiyati va umumiy tavsifini o`rganib, o`z tarkibida hayvon organizmi uchun kerakli bo`lgan ozuqa moddalar, vitaminlar, mikroelementlar va antibiotiklardan tashkil topgan aralashma tayyorlash mumkin.

Omixta yem zavodlarida turli xildagi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

- To`liq ratsionli omixta yem;
- Omixta yem kontsentrati;
- Oqsil – vitaminli qo`shimchalar (OVK);
- Ozuqabop aralashmalar;
- Pryemikslar;
- Karbamid kontsentrati;
- So`t urnini bosuvchi mahsulotlar.

**To`liq ratsionli omixta yem.** Ular hayvonlarning ozuqa, mineral va biologik faol moddalar bo`lgan talabini to`la kondiradi. Omixta yem asosan kushlar, cho`chqalar, otlar va esh chorva mollari (kuzi, buzok, bo`talok, toycha) uchun muljallangan. To`liqratsionli omixta yem bilan ozuklantirish mahsuldorlikni oshirib, sogligini yaxshilashiga va olinadigan birlik mahsulotga kam harajat sarflashga imkon beradi. Omixta yem sochma, granula (cho`chqalar uchun) va erma (kushlar uchun) ko`rinishlarida ishlab chiqariladi.

Ko`pincha omixta yem sifat ko`rsatgichlari foydalaetgan xom ashyo sifati va texnik jarayonini boshqarish koidalari rioya qilganliklari bilan belgiladi. Bu koidalarni buzish sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishga olib keladi.

Omixta yem kontsentrati. Bu yuqori miqdorda oqsilli, mineral moddali, vitaminli bo`lgan omixta yemdir. Ulardan dag`al xoshach va donli aralashmalar bilan birgalikda ishlatishda foydalaniladi.

Ozuqabop aralashmalar. Ular erma sanoat chiqindisi mahsulotlariga (ozuqa uni, kipik va b) melassa, karbamid, bur, tuz va boshqalarni kushish yo`li bilan tayyorlanadi. Ozuqabop aralashmalarda garchi ozuqa moddalarining to`liq tarkibi saqlanmasada, ularni ozuqa vositasi sifatida ishlatish mumkin. Dag`al ozuqali ozuqabop aralashmalar ermas zavodlari koshidagi maxsus tsexlarga tayyorlanadi. Ozuqabop aralashmalarni ishlab chiqarish uchun suli, tarik luzgalardan va un – erma sanoatining boshqaoralik mahsulotlaridan (donli chiqindi, kepaklar, muchka, shrotlar, mineral qo`shimchalar) foydalaniladi. Bu aralashmalar asosan yirik shoxli hayvonlar va qo`ylar uchun muljallangan. Ozuqabop aralashmalarning sifati oshadi, kachonki ular granulalansa (granula Ø 18 mm). SHu bilan bir katorda ozuqabop aralashmalar boshqa maxsus retseptlar asosida ishlab chiqariladi.

**Oqsil vitaminli qo`shimchalar** (OVK) – bunda oqsil kontsentrati, mineral moddalar va vitaminlar tushuniladi. Ular boshqa ozuqa vositalariga (dag`al donli ozuqalarga) kushish uchun muljallanadi va karmamid kontsentrati asosida eki tarkibi yuqori oqsilga boy bo`lgan tibbiy mahsulotlar asosida tayyorlanadi.

OVK tarkibiga biologik faol moddalar sifatida omixta yem uchun ishlatilgan xuddi shu pryemikslar, faqatgina bir necha marta ko`proq miqdorda kushiladi. Yirik shoxli hayvonlar uchun OVK ishlab chiqarishda oqsilning urnini bosuvchi karbamid kontsentratlaridan foydalaniladi.

Pryemikslar. Bu bir turli, yuqori dispersiyali turli biologik faol moddalarning va tuldiruvchili mikroqo`shimchalar aralashmasidir. Pryemikslar omixta yemni OVK ni

boyitishi uchun xizmat qiladi. SHu bilan birga ular maxsus retsept asosida tayyorlanadi. Qishloq xo`jalik hayvonlari va kushlar uchun tayyorlangan pryemikslar texnik shartlar talablariga mos kelishi va retseptura asosida tayyorlanishi kerak.

Tuldiruvchi sifatida bugdoy kepagidan va biologik faol moddalarning yaxshi taksimlanishi hamda changlanishni kamaytirish maqsadida pryemikslar tarkibiga 1 – navli 2...3% ozuqa yog`i kiritiladi. Texnik shartlarga muvofiq pryemikslarning namligi 10% dan oshmasligi, maydalanish darajasi teshik Ø 1,2 mm elakda massa bo`yicha kodik 2% dan oshmasligi kerak.

Pryemikslar saqlash muddati – ishlab chiqarilgankundan boshlab 6 oygacha. Pryemikslarning tarkibi omixta yemga 1% miqdorda kiritilish hisoblangan.

Karbamid kontsentratlari. Bu maxsus kushilma bo`lib, yirik kavshovchi hayvonlar uchun qo`llaniladi va sintetik karbamid, don va bentonit asosida ishlab chiqarishladi. Karbamid kontsentrati uzi oqsil hisoblanmasada, oqsilning qo`shimcha manbai hisoblanadi. 100 kg kontsentratning ozuqa qiymati 84,8 ozuqa birligiga teng. 100 kg kontsentrat tarkibida 60,8% ho`l protein mavjud. Karbamid kontsentratning sifati texnik shartlar bilan belgilanadi. U so`ma eki tarada saqlanadi va tashiladi. Bu kontsentrat uz – uzidan saralanishga kodir yemas.

**So`t urini bosuvchi mahsulot.** Bu mahsulot buzok, cho`chqa bolalari va kuzichoklarni bokish uchun muljallangan. So`t urinbosarlari yog`sizlantirilgan quruq so`t, kraxmal, hayvon yog`lari, pryemiks va boshqalar asosida tayyorlanadi. So`t urinbosari bilan bokishdan oldin, u issik suv bilansuyo`ltiriladi omixta yem zavodlari bu mahsulotni donador, briket va sochiluvchan ko`rinishda ishlab chiqaradi.

2.2. Omixta yem uchun ishlatiladigan xom ashyoning turlari.

Omixta yem ishlab chiqarish uchun shartli ravishda guruxlarga bo`linuvchi turli xil xomashyolar qo`llaniladi. Bu xomyoshiylarning ba`zi turlari mustaqil holda ozuqa mahsulotlari sifatida ishlatiladi, omixta yem ishlab chiqarishda esa ular uning tarkibiga ingredientlar ko`rinishida kiritiladi. Omixta yem zavodlariga kelib tushadigan xomashyolar ko`p hollarda ishlab chiqarishning turli sohalari chiqindilari hisoblanadi.

Omixta yem ishlab chiqarish uchun quyidagi xomashyolar ishlatiladi.

1. Boshokli va dukkakli ekinlar donlari, ba`zi ozuqabop o`tlarning uruglari: suli arpa, makkajuxori doni va so`tasi, bugdoy, javdar, tarik, chumiza, ok juxori, nuxat, xashaki nuxat, yasmik, boblar, china, no`t, xashaki nuxat uruglari, alkaloidsiz lyupin va boshqalar.

2. Tyog`irmon va yorma zavodlaridan chiqadigan chiqindilar: bugdoy va javdar kepaklari, bugdoy, arpa, suli, makkajuxori, gurunch, tarik, nuxat, javdar, grechixalarga ishlov berganda ajraladigan ozuqa unlari; bugdoy, javdar, nuxat okshoklari; ok va kul rang tyog`irmon changlari; makkajuxori, bugdoy, sholi ko`rtaklari; tarkibida 60% gacha foydali don saqlagan donli chiqindilar.

3. Moy ishlab chiqarish zavodlarining chiqindilari - shrot va kunjara: kungabokar, paxta chigiti, soya, zigir, erylengok, kanop, kunjo`t, kariandr, kanakunjo`t va boshqalar.

4. SHakar ishlab chiqarish korxonalarining chiqindilari: lavlagining kuritilgan turupi, melassa.

5. Kraxmal - shinni sanoati korxonalarida ishlab chiqarishdan hosil bo'lgan chiqindilar: makkajuxorili va bugdoyli quruq ozuqa, kartoshkali quruq mezga.
6. Pivo ko'pchitish sanoati korxonalarida ishlab chiqarishdan hosil bo'lgan chiqindilar: kartoshka - donli xomashyodan kuritilgan qo'yka, kuritilgan maysa (solod) nishi va piva drobinasi.
7. Hidroliz sanoati mahsulotlari - ozuqabop quruq achitqilar.
8. Hayvonlardan kelib chiqadigan ozuqalar: gusht uni, gushtsuyagi uni, kon uni, kit, baliq unlari va jizza uni.
9. Pichan, somon, pichan uni, vitaminli o't uni, xvoy daraxtidan ishlab chiqariladigan unlar.
10. Mineral ozuqalar: osh tuzi, bur, suyak uni, oxak, travertinovaya un, mollyuska chiganoklari tabakasi uni, mikrodozalardagi ba'zi elementlar turlari.
11. Boshqa ozuqa mahsulotlari: quruq kaymogi olingan so't, kazein, quruq kartoshka, dub yongogi, to'tli ipak urami gumbaklari, mochevina va boshqalar.

2.3. Donli xom ashyo tavsifi.

Turli ekin donlari va uruglari, shuningdek un va yorma ishlab chiqarish sanoati chiqindilari ko'pgina omixta yemlarning majburiy holda asosiy tashkil qiluvchi qismlari hisoblashadi.

Donli yem-xashakning katta ahamiyatga ega ekanligi uning yuqori ozuqa qiymatligidadir. Yem - xashak ekini sifatida eng ahamiyatlisi makkajuxori, arpa va sulidir.

Omixta yemdagi don miqdori don rodidan, hayvon turidan va ularning xo'jalik - ekspluatatsion guruxidan bog'liq holda uzgarib turadi. Turli omixta yem tarkibiga aralashma yoki aloxida - aloxida ko'rinishda 10 dan 50% gacha suli, 30 dan 50% gacha va undan ko'p arpa, 20 dan 35% gacha va undan ko'p makkajuxori, 15 dan 30% gacha javdar, 20 dan 30% va undan ko'p bugdoy kushiladi.

Omixta yem ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan donlarning sifat ko'rsatkichlari: namlik, ifloslantiruvchi aralashmalar, zararli aralashmalar, donli aralashmalar, makkajuxori uchun esa - kasallangan yoki to'lakonli bo'lmagan va so'tadan tuqilgan donlar miqdori bilan baholanadi.

Omixta yem ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan don normal xidga va ta'mga ega bo'lishi; zararkunandalar bilan zararlanganligi esa kanalar uchun 2-darajadan oshmasligi kerak. Aloxida ekinlar uchun sifat ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

Jadval - 2

Sifat ko'rsat kichlari	Ekin turi								
	Arpa	Suli	Makkajuxori doni	So'tali makkajuxori	Tarik	Bugdoy	Javdar	Nuxat	Vika
Namlik, %	15,5	16,0	16,0	18,0	15,0	16,0	16,0	16,0	17,0
Ifloslantiruvchi aralashma, %	8,0	8,0	5,0	3,0	8,0	5,0	5,0	5,0	5,0

SHuningdek:									
a) zaharli aralashmalar	0,2	0,2	-	-	-	0,2	0,2	-	-
SHuningdek:									
Gorchak va vyazel' (birga yoki aloxida)	0,1	0,1	-	-	-	0,1	0,1	-	-
Koraqo`ya va korakosov (birga yoki aloxida)	0,5	0,5	-	-	-	0,5	0,5	-	-
B) kukol'									
V) kasallangan donlar	-	-	2,0	-	-	-	-	-	-
g) kasallangan so`tali makkajuxori	-	-	-	2,0	-	-	-	-	-
Donli aralashmalar, %	15,0	15,0	15,0	-	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0
To`lakonli bo`lmagan so`ta, %	-	-	-	8,0	-	-	-	-	-
SHuningdek									
Kasallangan so`ta, %	-	-	-	3,0	-	-	-	-	-
Doni tuqilgan soglom so`ta, %	-	-	-	10,0	-	-	-	-	

Tyog`irmon, yorma zavodlari va elevatorlardan chiqadigan chiqindilar kontsentrlangan ozuqa va ingredientlar sifatida qo`llaniladi. Bu ishlab chiqarishlardan olinadigan ko`pgina chiqindilar xattoki uzining yuqori oqsil, yog, kletchatka va mineral moddalar miqdoriga boyligi bilan boshlangich donlardan farq qiladi.

Tyog`irmon va yormia zavodlarining ba`zi chiqindilari (kepak, tyog`irmon changi, ozuqabop un) avvalo ozuqa maqsadida ishlatiladi.

Bugdoy va javdar kepagi ulardan navli va oddiy un tortish natijasida hosil bo`lgan qo`shimcha mahsulot sifatida olinadi. Ular don qobiqlarining maydalangan bo`lakchalari va ko`rtak aralashmalarining turli kattaliklaridan iborat.

Un tortish turidan va navli unning chiqishidan bog`liq holda bugdoyni qayta ishlashda kepakning miqdori 9,5 - 18,5%, javdarni qayta ishlaganda esa 9,0% dan 18% gacha yetishi mumkin. Uning tarkibida oz yoki ko`p miqdorda endosperma, va binobarin turli miqdorda kletchatka hamda kul bo`lishi mumkin.

Tyog`irmon changi bugdoy va javdarni maydalashdan olinadi. U magizning changsimon qismlari va qobiqdan aralashmasidan tashkil topgan. Ozuqa yem maqsadida ok va kul rang tyog`irmon changi ishlatiladi.

Ozuqa uni turli ekin donlaridan yorma olishda yoki bugdoy va javdardan bir navli un tortishda hosil bo`ladi. Ular magiz qismchalaridan, meva va urug qobiqlaridan, qisman mo`rtakdan, agar gul qobiqli donlarga ishlov berganda - gul qobiq bo`lakchalaridan iborat bo`ladi.

Ozuqa uni miqdori ishlab chiqarishga tushadigan donning vazniga nisbatan olinadigan yorma turidan va navidan bog`liq holda 5-20% gacha, bugdoy va javdardan un tortishda esa 6 - 15 % gacha yetishi mumkin.

Donli chiqindilar asosiy oziq-ovqat ekinlari donlarini don qabul qilish punktlarida, elevator, tyog`irmon va yorma zavodlarida donli va ifloslantiruvchi aralashmalardan tozalashdan olinadi. Omixta yem tarkibiga donli chiqindilar bilan foydali donni 60% gacha kiritishga ruxsat beriladi. donli chiqindilar tarkibidagi foydali donlar dev asosiy ekin donlari va donli aralashma tarkibiga kiruvchi donlarga aytiladi. Donli chiqindilarning ozuqaviyligi ularning tarkibidan bog`liq holda sezilarli o`zgaradi.

Tyog`irmon, yorma zavodlari va elevator chiqindilarini omixta yemga kiritishning maksimal me`yori 5 - 50%gacha qiymatda bo`ladi.

2 - jadvalda tyog`irmon va yorma zavodlaridan olinadigan ba`zi bir chiqindilarning ozuqaviyligi haqida qiymatlar keltirilgan.

Jadval-3

Un va yorma sanoati ba`zi chiqindilarining ozuqaviyligi

Chiqindilarning nomlanishi	100 kg da		1 kg da		
Dag`al bugdoy kepagi	72	11,4	1,8	10,1	4
Yirik javdar kepagi	76	11,0	1,0	9,5	3
Tyog`irmon changi	61	11,9	2,7	4,2	0
Bugdoy ozuqa uni	113	15,5	0,9	3,6	0
Nuxat ozuqa uni	113	20,5	0,9	4,2	0
Makkajuxori ozuqa uni	117	8,1	0,7	1,5	3
Tarik ozuqa uni	92	8,5	0,8	3,0	1
Bugdoy doni chiqindilari	64	12,4	1,0	4,2	1

Omixta yem xomashyosi sifatida ishlatiladigan un va yorma sanoati chiqindilari urnatilgan talablarni kondirishi lozim.

Bugdoy va javdar kepagi davlat standarti talablariga javob berishi shart.

Jadval-4

Kepakning sifat ko`rsatkichlari

Ko`rsatkichlar	Ko`rsatkichlar tavsifi	
Rangi	Kulrang tovlanuvchi kizgish-sarik rang	Jigar yoki yashil tovlanuvchi kulrang
Xidi	Dimikmagan mogorlamagan va byog`ona xidsiz	Dimikmagan mogorlamagan va byog`ona xidsiz
Mazasi	Achchik va nordon ta`msiz	Achchik va nordon ta`msiz

Namlilik, % ko`p yemas	15	15
Zaharli aralashmalar, % ko`p yemas	0,05	0,05
SHuningdek		
Gorchak va vyazel' (aloxida yoki birga), % ko`p yemas	0,04	0,04
Kukol, % ko`p yemas	0,10	0,10
Geliotrop va kampirchopon uruglari aralashmasi	Ruxsat berilmaydi	Ruxsat berilmaydi
Metall aralashmalar:		
O`tkir kirrali va uchli metall aralashmalar	Ruxsat berilmaydi	Ruxsat berilmaydi
Razmeri 2 mm gacha bo`lgan metall bo`lakchalar, 1 kg da mg	5	5
SHuningdek razmerlari 2 mm dan 0,5 mm gacha bo`lgan bo`lakchalar, ko`p yemas	1,5	1,5
Ombor zararkunandalari bilan zararlanganlik	Ruxsat berilmaydi	Ruxsat berilmaydi

Bugdoy ozuqa uni normal xidli va ta'mli bo'lishi, rangi esa kulrang - malla bo'lishi kerak, chaykash usuli bo'yicha kislotaviyligi 5 dan oshmasligi, kuldorligi 3,5 dan past va 4 % dan yuqori bo'lmasligi, namligi 15% dan oshmasligi, koraqo'ya va korakasov miqdori aloxida - aloxida yoki birgalikda 0,05% dan ko'p bo'lmasligi; gorchak va vyazel ham xuddi shunday % 0,04 % dan oshmasligi lozim va shuning bilan birgalikda zararkunandalar bilan zararlanganlik ruxsat berilmaydi.

Omixta yemga donli chiqindilarni ishlatganda asosiy e'tibor zaharli aralashmalar miqdoriga karatiladi. Ularning miqdori oziq-ovqat va yem - xashak uchun belgilangan, 1-jadvalda ko'rsatilgan qiymatlardan oshmasligi kerak.

2.4. Kunjara va shrot.

Kunjara va shrot - bu yog oluvchi zavodlarda moyli ekin uruglaridan va makkajuxori ko`rtigidan maydalab moy (yog) olish natijasida hosil bo`ladigan qo`shimcha mahsulotlardir.

Kunjara va shrot qishloq xo`jaliklari tomonidan doimo yuqori talab bilan foydalaniladigan, eng birinchi katorlarda turadigan qiymatli yem hisoblanadi. ular xalkaro savdoda ham zaruriy ob'ekt hisoblanadi.

Kunjara uruglar presslab olinadi, va buning natijasida undan yogning asosiy qismi ajraladi. Boshqacha qilib aytganda bu - presslangan yogsizlantirilgan uruglardir. Kunjaradagi yog miqdori odatda 6-9% dan oshmaydi. U presslash usulidan (sovuk yoki issik) va qo'llaniladigan mashina tipidan bog`liq. Qishloq xo`jalik tipidagi moyzavodlarida kunjara olinganda uning tarkibidagi yog zamonaviy uskunalar bilan jixozlangan zavodlardan ishlab chiqarilgan kunjaraniqiga karaganda ko`p bo`ladi. Yog`dan tashqari, kunjarada urug tarkibiga kiruvchi deyarli barcha moddalar saqlanadi.

YOgni sovuk presslash usuli bilan (uruglarni kizdirmasdan) olganda kunjara va urug moddalari sifati bo'yicha urug moddalaridan farq qilmaydi, issik presslash (uruglarni dastlabki kizdirishda) usulida esa moddalarning ba'zi bir uzgarishi (oqsillar denaturatsiyasi va b.) kechadi.

Kunjara gidravlik presslar qo'llangan holda kalinaligi 38 mm, uzunligi 900 mm ga yaqin, kengligi 350 mm bo'lgan zich presslangan plita ko'rinishida yoki uzluksiz ishlovchi shnekli presslarni qo'llagan holda shakli bo'yicha chiganokni eslatuvchi bo'lakchalar ko'rinishida ishlab chiqariladi. Ba'zan kunjara korxonadan maydalangan ko'rinishda chiqariladi.

SHrot maydalangan moyli ekinlar urugini erituvchilar (benzin, dixloretan va b.) yordamida ekstraksiyalash yo'li bilan yogi olingan mahsulotdir. ekstraksiyalash tugashi bilan erituvchilar urug koldiklaridan xaydaladi va ular kuritiladi, shuning uchun shrot hamma vaqt okuvchan mahsulot hisoblanadi. ekstraksiyalashda yogning katta qismi erituvchi bilan ajraladi, va shuning uchun shrot tarkibida yogining miqdori ko'p yemas (0,7-4%).

Kunjara va shrot oqsilga boy, ko'p miqdorda kletchatka va pentozanlarga ega. Ular mineral moddalarga, xususan kaliy va fosfarga boy. Ularda V va E gurux vitaminlari ancha mul. Oqsil miqdori jixatdan ular urugdan ustun turadi va shuning uchun yuqori ozuqa qiymatini namoyon qiladi. Kunjara va shrotning kimyoviy tarkibi 5-jadvalda keltirilgan.

Jadval-5

Kunjara va shrotning kimyoviy tarkibi

Mahsulot nomi	Azotli moddalar	Azotsiz moddalar	Klet chatka	YO g	Kuldo rlik
Yuqorikipikli kungabokar kunjarasi	39,5	22,3	15,1	8,9	5,9
Xuddi shunday shrot	44,4	23,8	18,1	2,7	6,7
Zigir kunjarasi	35,1	33,8	6,5	7,5	6,2
Zigir shroti	33,4	36,1	10,1	2,8	
Kanop kunjarasi (urugidan ajratilmagan)	33,1	15,3	24,6	7,1	7,8
Xuddi shunday shrot	34,2	16,8	29,2	2,1	8,4
CHigit kunjarasi	37,2	27,8	7,7	7,6	6,1
CHigit shroti	43,6	23,1	8,1	3,9	6,9

Qishloq xo'jalik hayvonlari uchun muljallangan omixta yemga turli kunjara va shrot 5% dan 35% gacha, parrandalar uchun – 12 dan 20% gacha kiritiladi.

Kungabokar kunjarasi va shroti - hayvonlar sevib iste'mol qiladigan qiladigan kimmatli, yuqori to'yimli yem. Uning rangi turli tuslanuvchi kulrang. 100 kg kungabokar kunjarasi 113 ozuqa birligiga mos keladi. Kipikning miqdori bo'yicha ular odatiy va kamkipikli bo'ladi. Odatiy kunjara 15,5% gacha, kamkipikli (moy olishdan oldin urug qobiqsizlantiriladi va meva kobigining katta qismi ajratiladi) kunjarada esa - 4% gacha kipik mavjud. Odatiy kunjara va shrot tarkibida kipik va kletchatkaning miqdori yuqori bo'lganligi uchun yosh hayvon va parrandalar yemiga

kiritilmaydi. Kungabokar shroti esa so't bilan boqilayotgan buzoklar yemiga kiritilmaydi.

Zigir kunjarasi va shroti turli tuslanuvchi malla va kulrang bo'ladi. Ozuqaviyligi bo'yicha kungabokar kunjarasi va shrotiga yaqin 100kg zigir kunjarasi 117 ozuqa birligiga teng. Zigir kunjarasi bir kancha ijobiy xususiyatga ega bo'lib, bu undan foydalanishga ta'sir ko'rsatadi.

Zigir kunjarasi suvda shishib, shillik hosil qiladi va bu hayvon ichagini yalliglanishidan saqlaydi hamda yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Baliqlar uchun muljallangan yemga zigir kunjarasi kushilganda uning kovushkokligi oshadi, suvda sekin yoyiladi va eziladi.

Ba'zi hollarda zigir kunjarasi uzida sinil kislotasini saqlaydi, uning 300mg yoki undan ko'progi hayvon uchun xavfli doza hisoblanadi.

CHigit kunjarasi, omixta yem uchun ishlatiladigan qobiqli va qobiqsiz uruglardan olinadi va ikki tipga bo'linadi (chigit olinadigan paxta navidan bog'liq holda). Bu oddiy paxta chigiti va ipak paxta chigitidir. Oddiy paxta chigiti sifatidan bog'liq holda I va II navga bo'linishi mumkin. Kunjara rangi turli sarik rangda, sargimtir yashil yoki kungir rangli, kizil - kungir va malla rangda bo'ladi.

Paxta shroti ham kunjara kabi qobiqli va qobiqsiz uruglardan olinadi. yem maqsadida qobiqsiz urug shroti ishlatiladi. Paxta shroti sarik-kungir rangdan malla ranggacha bo'ladi. Sifatidan bog'liq holda u ikkita navga bo'linadi.

CHigit kunjarasi va shroti yaxshi ozuqaviylikka ega. Kunjara va shrotining umumiy ozuqaviyligi 104 - 108 ozuqa birligiga, hazm bo'luvchi protein miqdori 34-38%ga, ho'l kletchatka 6-7,5% ga teng.

Birok chigit kunjarasi va shroti uzida zaharli modda - gassipol saqlaydi, shuning uchun ular omixta yemga maksimum 10% atrofida kiritiladi. Gossipol paxta chigitada katta qiymatlarda tebranib turadi, shuning uchun uning miqdori kunjara va shrotida turlicha bo'ladi. paxta chigitida, xususan kunjara va shrotida gossipol ikki xil shaklda - erkin va boglangan holda bo'ladi. Zaharli xususiyatni erkin gossipol nomoyon qiladi.

CHigit kunjarasi va shrotini yemga kiritish me'yori ulardagi erkin gossipol miqdoridan bog'liq. 6-jadvalda cho'chqalarni syemirish konditsiyasigacha bokish uchun muljallangan omixta yem - konsentratiga kunjara va shrotni kushish me'yori keltirilgan.

Jadval-6

Cho'chqa uchun ishlatiladigan omixta yemga kushiladigan kunjara va shrotdagi erkin gossipol miqdori me'yori

Kunjara va shrotdagi erkin gossipol miqdori, %	Omixta yemga kiritiladigan kunjara va shrotning ruxsat berilgan miqdori, %
0,06 gacha	10
0,07 gacha	9
0,08 gacha	8
0,09 gacha	7
0,10	6

Kanop kunjarasi va shroti kanopning qobiqli va qobiqsiz mevasidan olinadi. kunjara va shrotning rangi turli tuslanuvchi kulrangli.

Ozuqaviyligi bo'yicha 100 kg kunjara va qobiqsizlantirilmagan urug (8-10% namlikda) 72 - 78 ozuqa birligiga teng, 24-26 % hazm bo'luvchi oqsil mavjud (kimyoviy tarkibi 4 - jadvalda ko'rsatilgan).

Kanop kunjarasi va shrotida narkotik moddalar mavjud, shuning uchun ularning omixta yemga kiritilishi chegaralanadi, yosh va bugoz hayvonlar uchun esa ruxsat berilmaydi.

Soya kunjarasi va shroti yuqori ozuqaviyligi bilan tavsiflanadi. 100kg soya kunjarasining umumiy ozuqaviyligi 10% namlikda 126 ozuqa birligiga, soya shroti esa 11,1% namlikda - 119,3 ozuqa birligiga teng.

Soya kunjarasi va shroti proteinga boy, nisbatan ko'p bo'lmagan kletchatka (6-7%) ushlaydi hamda ozuqaviyligi jixatdan ko'p yemlardan, shuningdek oqsilli ekin uruglaridan ustun turadi. Soya kunjarasi va shroti parrandalarni bokishda aloxida qiymatga ega. Ular yogning okarish imkonini beradi. Soya shroti bilan boqilgan cho'chqalarda sala sifati yaxshilanadi.

Eryongok kunjarasi va shroti - juda kimmatli ozuqa mahsulot bo'lib, oqsilga boy.

100 kg kunjaraning ozuqaviyligi 122-126 ozuqa birligiga teng, protein miqdori 50-52%, kletchatka 3-4%. Eryongok kunjarasi va shroti bilan cho'chqalar boqilganda u salasifatiga yaxshi ta'sir qiladi.

Kunjo't kunjarasi va shroti qobiqli va qobiqsiz uruglarga ishlov berishda olinadi. Omixta yem ishlab chiqarishda ko'pincha qobiqli urug kunjara va shroti ishlatiladi. Kunjo't kunjarasi va shroti yuqori ozuqabop yemlar. 100 kg kunjo't kunjarasi 128-133 ozuqa birligiga mos 37-40% hazm bo'luvchi proteinga ega.

Xochguldoshlar kunjarasi va shroti - surepka, indov (raps) kuzikorinli (rijik) surepka kunjarasining umumiy ozuqaviyligi 12,3% namlikda 93,8 ozuqa birligiga teng, indov kunjarasining (13,6 % namlikda) - 100,7 kuzikorin kunjarasining esa (12% namlikda) 115,3 ozuqa birligiga teng.

Kechguldoshlar kunjarasi va shroti xantal (gorchitsa) efir moyining glyukozidini ushlaydi. Kunjara va shrotda mavjud bo'lgan mirozin fermentining ta'sirida xantolli efir moyi taroshlanadi. Bu moy hayvonlarning ovqat hazm qiluvchi organlari shillik pardasini yalliglaydi. Ba'zi moyzavodlarida presslashdan oldin xachguldoshlar urugi dastlab namiktiriladi, 100 S gacha kizdiriladi va mirozin fermenti faolligini yukotadi. Bunday ishlov berilgan urugdan olingan kunjara va shrot hayvonlarning hazm qilish organlariga tushganda glyukozidning parchalanishi bormaydi.

Xachguldoshlar kunjarasi va shroti achchik ta'mli bo'ladi. Xantalli moyning taroshlanishi va undagi achchik ta'm kerak ishlov berilmasdan ularni omixta yemga kushish imkonini bermaydi. ular baliqlar uchun muljallangan omixta yemda (55% gacha) ishlatiladi.

Kanakunjo't shroti, kanakunjo't urugidan olinadi va o'tkir bug bilan ishlov beriladi. Bug ostida zaharli moddalar - ritsin, ritsinin va boshqalar parchalanadi. Zararsizlantirilgan shrotdan yirik shoxli hayvonlar yemiga 7% gacha, sogiladigan sigirlar va yosh hayvonlar yemiga 17% gacha kushish mumkin. Zararsizlantirilmagan kanakunjo't kunjarasi va shrotdan yem maqsadida foydalanish mumkin yemas. 100 kg kanakunjo't yem shroti 13% namlikda ozuqaviyligi bo'yicha 68 ozuqa birligiga to'g'ri keladi. Bu shrot qobiqli urugdan olinadi, shuning uchun unda 35-38% gacha kletchatka mavjud.

Koriandr kunjaraasi va shroti - kariandr mevasini maydalagandan keyin avval efir moyi, sungra esa yogli moylari olingandan hosil bo'lgan mahsulotdir. ikkala mahsulot ham - okuvchan bo'lib, jigar rangli. 100kg kariandr kunjaraasi va shrotining umumiy ozuqaviyligi 70-78 ozuqa birligiga teng. Ular ko'p kletchatka saqlaydi (22-28%) va u sogin sigirlar hamda qoramollar yemiga kushiladi.

Makkajuxori kunjaraasi va shroti - makkajuxori ko'rtagidan moyi ajratib olingandan keyin hosil bo'lgan qo'shimcha mahsulot. 100kg makkajuxori kunjaraasining umumiy ozuqaviyligi 118-120 ozuqa birligiga, shrotniki esa 115-117 ozuqa birligiga teng. Juxori shrotini omixta yemga kushishning maksimal qiymati - 25%.

Namuna olish va kunjara xolida shrotning taxlili GOST bo'yicha amalga oshiriladi.

Kunjara va shrotning barcha navlari hamda turlari bo'yicha sifati quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlanadi: rangi, xidi, ta'mi, namligi, ho'l yog miqdori, ho'l protein, kuldorligi, metallaralashmalar. Kunjarani taxlil qilganda keltirilgan ko'rsatkichlardan tashqari presslash zichligi, siniklik miqdori va tozaligi ham aniqlanadi. SHrotni taxlil qilganda shuningdek yirikligi ham aniqlanadi. Ba'zi kunjara va shrotlarning sifati yana ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha ham tavsiflanadi. Kungabokar kunjaraasining sifati aniqlashda kipik miqdori, chigit kunjaraasida esa – puchok miqdori urnatiladi.

Ba'zi bir kunjara va shrotlarda zaharli moddalar (achchik yoki yalliglantiruvchi ta'sir qiluvchi) miqdori ham aniqlanadi. Masalan, chigit kunjaraasi va shrotida gossipol miqdori aniqlanadi.

Quyida, misol tarikasida, ozuqa yem maqsadida qo'llaniladigan kungabokar kunjaraasi sifatiga qo'yilgan talablar keltirilgan.

Kungabokar kunjaraasi sifatiga qo'yilgan talablar.

Rangi - turli tuslanuvchi kulrang.

Xidi - xech qanday byog'ona xidsiz (dimikkan, mogor va b.) kunjaraaga xos xid.

Tozaligi - kunjaraada byog'ona aralashmalar (pres salfetskasi koldigi, metal aralashmalar, shisha va b.) bo'lmasligi kerak.

Singani - kunjara pletkalarining mayda bo'laklari miqdori (plitkaning choragidan kam) va kunjara changi umumiy partiya ogiriligiga nisbatan 5 % dan oshmasligi kerak.

Jadval-7

	Oddiy kunjara	Kamkipikli kunjara
Namlik, %, ko'p yemas	8,5	8,5
Ho'l yog, %, mo'tlak quruq moddaga nisbatan, ko'p yemas	9,0	9,0
Ho'l protein, %	44,0	50,0
Kipik, %	15,54	4,0
HCl da erimaydigan kuldorlik, %	1,5	1,6

2.5. Lavlagi shakari, kraxmal qiyomi va gidroliz ishlab chiqaruvchi sanoat chiqindilari.

Lavlagi shakari va ko'pchitish sanoati chiqindilarining namligi yuqori bo'lsa, ular barra hamda mollarga beriladi yoki ishlab chiqarishdan uzok bo'lmagan joyda silos

xolida saqlanadi. Chiqindilarning baʼzi qismi kuritiladi va shunday holda ratsion tarkibiga yoki ingredient sifatida omixta yemga kiritiladi. Kuritilgan chiqindilar toʻla transportbop va ishlab chiqarishdan uzok boʻlgan omixta yem zavodlariga ham etkazib beriladi.

SHakar sanoati chiqindilari. shakar sanoati shakar lavlagining katta miqdordagi asosini qayta ishlaydi.

Turup (jom) - bu shakarlavlagi kirindisidan saharozeni suv bilan ajratib olgandan keyin hosil boʻladigan koldiklar. Odatda turup tarkibida bor-yugi 0,3% gacha shakar mavjud. Yangi olingan turupda 93% gacha suv boʻladi. 100 kg turupda 8 ozuqa birligiga teng va unda 900 g hazm boʻluvchi protein bor.

Turup barra va siloslangan holda yirik shoxli hayvonlarni hamda choʻchqalarni bokishda foydalaniladi. 100 kg quruq turup 85 ozuqa birligiga teng va 4 kg hazm boʻluvchi proteinga, 717 g kalʼtsiy va 307 g fosforgia ega. U mollarga berilishdan oldin suvda bevosita ivitiladi yoki omixta yem tarkibiga kiritiladi.

Melassa yoki ozuqa shinnisi saharoza kristalllarini tsentrifuga yordamida ajratgandan keyin olingan mahsulot boʻlib, yana 50% gacha shakar ushlaydi.

Agar bu shakarni eritmadan ajratib boʻlmasa (eritmada kristallanishga xalakit beruvchi koʻp modda mavjud), bunda u hayvonlarni bokish uchun muljallangan yemga yoki spirt va achitki ishlab chiqarishga ishlatiladi. 100 kg ozuqa shinnisi 77 ozuqa birligiga, oqsil boʻlmagan azotli moddalarga, 300 g kalʼtsiy va 30 g fosforgia ega. Ozuqa shinnisi tarkibida shuningdek kerakli mikroelement - kobalʼt ham mavjud. Melassa shirintarum.... achchik-shur taʼmga, aloxida xidga, koramtir rangga va chuziluvchan konsistentsiyaga ega.

Suvd v eritilgan melassa dagʻal yemlarni mazzali qilish uchun xizmat qiladi va briket koʻrinishida olinadigan omixta yem tarkibiga kushiladi.

SHakar zavodlarida turupshinni deb ataluvchi aloxida ozuqa ishlab chiqariladi. Turupshinni deb kuritilgan shakar lavlagi turupi bilan melassaning 1:1 nisbatda aralashtirilgan, bug bilan ishlov berilgan, kuritilgan va issik xolida briket koʻrinishida presslangan aralashmaga aytiladi. 100 kg turupshinni 65 ozuqa birligiga teng, 22,5% dan kam boʻlmagan saharoza va 15% dan koʻp boʻlmagan namlikka ega. Turupshinniga tursh va dimikkan xid, ichki va tashqi mogorlash, zararkunandalar bilan zararlanish ruxsat buerilmaydi.

Kraxmal - qiyomi va koʻpchitish sanoati chiqindilari

Mezga. Kraxmal - qiyomi sanoatida kraxmal va qiyom olish maqsadida juda koʻp kartoshka tuganagi va makkajuxori doni qayta ishlanadi. Bu ishlab chiqarish chiqindilaridan biri mezga hisoblanadi.

Kartoshka yoki makkajuxori mezgasi maydalangan kartoshka va juxoridan kraxmalni yuvib olgandan keyin ajratiladi. U 90% gacha suv saqlaydi va shuning uchun past ozuqa kimmatiga ega. 100kg kartoshka mezgasi 13 ozuqa birligiga teng va 0,3 kg hazm boʻluvchi proteini bor. 100 kg juxori mezgasi 20 ozuqa birligiga, 1,7 kg hazm boʻluvchi proteinga ega.

Mezga tez buziluvchi mahsulot hisoblanadi, shuning uchun u zavod yaqinidagi hayvonlarga toza va siloslangan koʻrinishda beriladi.

100 kg kuritilgan kartoshka mezgasi 95,5 ozuqa birligiga va 2,1 kg hazm boʻluvchi proteinga ega, makkajuxori mezgasi 127 ozuqa birligiga va 11,8 kg hazm boʻluvchi proteinga ega. Kuritilgan mezga omixta yem ingredient sifatida ishlatiladi.

Quruq makkajuxori ozuqasi (mosh yemi). Yuqorida aytib o`tilganidek makkajuxoridan kraxmal ishlab chiqarishda mezga olinadi. Undan tashqari, kraxmal - qiyomi sanoatining chiqindisi bo`lib lyo`ten (asosan oqsillardan tashkil topgan) va makkajuxori kuragidan olingan shrot (kraxmal olishda ko`rtak ajratiladi va moy lishda ishlatiladi) ham hisoblanadi.

Bu barcha chiqindilar kuritiladi va maydalanadi. sungra ular aralashtiriladi va "Quruq makkajuxori ozuqasi" nomi bilan ishlab chiqariladi.

Quruq makkajuxori ozuqasi kul rang yoki sarik rangli, uvalanib ketadigan, kizishmaydigan, mogorlash belgilarisiz, byog`ona aralashmalarsiz, byog`ona xidsiz bo`lishi lozim.

Namligi 12% dan oshmasligi kerak. 1kg yemda razmeri 2 mm gacha bo`lgan metalmagnitli aralashma miqdori 50 mg gacha shuningdek razmerlari 0,5 dan 2 mm gacha bo`lgan metalmagnitli aralashma miqdori 50 mg gacha ruxsat beriladi. Yem teshik diametri 10 mm bo`lgan lakdan o`tishi kerak. 100 kg quruq makkajuxori ozuqasi 114,3 ozuqa birligiga teng, 16,3 kg hazm bo`ladigan proteinga, 56g kal`tsiy va 325 g fosforga ega.

Gidroliz sanoati chiqindilari

Ozuqa achitqilari daraxt chiqindilaridan va boshqa o`simlik materiallaridan (kamish, somon, kungabokar kipigi, chigit puchogi, makkajuxori uzagi, torfining ustki katlami va b.) olinadigan shakarlarda ustiriladi.

Ozuqa achitkalar gidroliz zavodlari koshidagi maxsus tsexlarga, tsellyo`loza-kogoz kombinatlarida, shuningdek bo`tun gidroliz shakari achitki uchun ishlatiladigan maxsus gidroliz - achitki zavodlarida ishlab chiqariladi. Turli xil xomashyolardan chiqadigan quruq ozuqa achitkisi qiymatlari 6-jadvalda keltirilgan.

Jadval-8

1 t mo`tlak quruq xomashyodan quruq achitkinining chiqishi

Xomashyo	Mo`tlak quruq achitki miqdori, kg
Daraxt va daraxt chiqindilari	180-250
Somon	210-280
Kungabokar kipigi	185-240
Ninabargli daraxtlarning sul`fitli ishkori	55-75
Sul`fit-spirt ishlab chiqarish	28-44
Gidroliz ishlab chiqarish bardasi	32-40

Quruq ozuqa achitqilarining tarkibi ishlatiladigan xomashyo tavsifidan, achitqilarning tup xususiyati va ularni ustirish sharoitidan bog`liq. quruq ozuqa achitqilarining (o`rtacha) 100 qilogramida 104 ozuqa birligi, 39,6 kg singuvchi protein, 870 g kal`tsiy va 590 g fosfor bor.

Achitqilar V gurux vitaminlariga boy. Ul`trabinafsha nurlari bilan nurlantirilganda D gurux vitaminlari bilan ham boyidi.

Oqsilli ozuqa achitqilari quyidagi talablarni kondirishi kerak: namlik miqdori 10% oshmasligi, umumiy oqsil miqdori 45% dan kam bo`lmasligi, kul miqdori 12% dan ko`p bo`lmasligi lozim.

Achitqilarda byog`ona xid va ta`m paydo bo`lishiga ruxsat berilmaydi.

Achitqilar yuqori kimmatli oqsilli ozuqa sifatida yosh cho`chqalar va parrandalar yemiga kushish mumkin.

Oziq - ovqat sanoati chiqindilarining yemga maksimal kushish normasi 5 - 25 % gacha qiymatda tebranib turadi.

2.6. Hayvonlardan olinadigan ozuqa xom ashyosi.

Hayvonlardan kelib chiqadigan ozuqa guruxlariga gusht va baliq sanoati, kit ovlash korxonalari (kit gushtini bo`laklagandan keyin), so`t ishlab chiqarish sanoati chiqindilari kiradi.

Hayvonlardan olinadigan ozuqalar uzida urinalmashmaydigan aminokislotalarni saklovchi singuvchan proteinlarga boy.

Ular shuningdek sezilarli miqdordagi mineral moddalar va V kompleksi vitaminlariga ham ega. Bu yem barcha turdagi hayvonlarga ishlatiladi. Ular usayotgan hayvonlar (cho`chqa bolalari, buzoklar, jujalar va b.), gushtga boqiladigan cho`chqalar, bugoz va yemizuvchi cho`chqalar, shuningdek parrandalar (tovuk, urdak, goz, kurka va b.) ozuqasi tarkibiga kiritiladi. Hayvonlardan olinadigan ozuqa assortimenti quyidagilar:

Baliq uni kimmatli bo`lmagan baliqlarni kuritish va maydalash shuningdek baliqlarni tilimlash yo`li bilan tayyorlanadi. Baliq uni to`lakonli hayvon oqsiliga (50% ga yaqin), yengil hazm bo`luvchi kal`tsiy va fosforga (25% gacha) ega.

Kit uni kit gushtidan va yogi eritib olingan jizzadan olinadi. U 65% dan 80% gacha protein, 5% gayaqin kul, ahamiyatli miqdorda kal`tsiy va fosfor saqlaydi.

Gusht uni gushtning kuritilgan kiykindilari va ichak - chavoklarini maydalash yo`li bilan olinadi. 70% gacha protein ushlaydi. Gusht unining kulli moddalari kal`tsiy va fosforga boy.

Kon uni qishloq xo`jalik hayvonlarining konini kuritish va sungra maydalash yo`li bilan olinadi. Unda 80% ga yaqin protein 5% gacha kul mavjud. Kon uni yem uchun yaroksiz. U ugit sifatida 1 gektarga 3-5 ts miqdorida ishlatiladi.

Gusht - suyagi uni kurbon bo`lgan hayvonlarning yogsizlantirilgan bo`tun gushtidan shuningdek zavodlarning hayvon ovlovchi floti miyalarida olinadi. U 42% dan 50% gacha protein, 40% gacha kul saqlaydi. Jizza tukimalaridan yogi eritib, kuritish va maydalash yo`li bilan olinadi. Protein miqdori 54 - 65% va undan ko`proq.

Suyak uni mineral ozuqa va mineral ugit sifatida foydaniladi. Suyak uni hayvon suyaklarini kaynatib, yogsizlantirib kuritgandan keyin maydalab olinadi. Agar hayvon ratsionida kal`tsiy va fosfor yetishmagan takdirda u bilan boqiladi. Kimizak erlarning 1 gektariga 3 ts ga yaqin miqdorda ugit sifatida ham qo`llanilishi mumkin.

Ipak kurtining gumbaklari ipakchilik sanoatining chiqindisi hisoblanadi. Ular pilla urashda hosil bo`ladi. Kuritilgan gumbaklar oqsil va yogga boy. YOgi esa saqlashda taxirlanadi, shuning uchun gumbaklarni uzok saqlab bo`lmaydi. YOglar ekstraksiyalash tavsiya qilinadi. Bu yemning saqlashdagi chidamliligini oshiradi. Ipak kurtining kuritilgan va maydalangan gumbaklari ba`zi omixta yemlar tarkibiga kiritilishi mumkin.

So`tli ozuqalar omixta yemga kaymogi va kazeini olingan quruq holda takdim etiladi. Bu ozuqa to`lakonli oqsil va mineral moddalarga bor, yaxshi hazmi bilan tavsiflanadi.

Hayvonlardan olinadigan turli yemlarni omixta yem tarkibiga kushish me`yori 5 - 15% atrofida tebranib turadi. 7-jadvalda hayvonlardan olinadigan ba`zi yemlarning ozuqaviyligi to`g`risidagi qiymatlar keltirilgan.

Jadval-9

Hayvonlardan olinadigan yemlarning ozuqaviyligi

Ozuqalarning nomlanishi	100 kg da	
	Ozuqa birligi	Hazm bo`luvchi oqsil, kg
Kop uni (70 % dan 80 % gacha oqsil)	102,3	72,8
Gusht-suyagi uni (20 % dan 30 % gacha kul)	89,8	34,1
Gusht uni (60 % dan 70 % gacha oqsil)	125,8	53,9
Kit uni	129,0	57,0
Baliq uni (oqsil 40 % dan yuqori)	82,0	42,9

Hayvonlardan olinadigan ozuqalar sifatidan bog`liq holda navlarga bo`linadi: gusht - suyagi uni birinchi, ikkinchi va uchinchi, olgan un turlari esa birinchi va ikkinchi navga bo`linadi.

Hayvonlardan olinadigan ozuqa unlarining sifat me`yorlari.

Tashqi ko`rinishi quruq, zich guvalachalarsiz, bosganda sochilib ketmaydigan Xidi uziga xos, ammo chirigan va dimikkan xidsiz.

Aralashma teshik diametrlari 3 mmli elakda elaganda uning koldigi (yirik aralashma ko`rinishda bo`lakchalar diametri 5 mm gacha) 5% dan oshmasligi kerak.

Byog`ona aralashmalar ruxsat berilmaydi, faqatgina bo`lakchalar razmeri 2 mm dan katta bo`lmagan metal aralashmalar miqdori 1 t 1-nav unga 150g va 1t 2 - va 3 nav unga 200 g miqdorida, bo`lakchalar razmerlari 1,5 dan 2 mm gacha bo`lsa 1 t unga 20 g gacha ruxsat beriladi. O`tkir kirrali bo`lakchalar ruxsat berilmaydi.

2.7. Mineral xom ashyolar, mikroelyementlar.

Mineral moddalar oziqlanishi uchun juda zarur bo`lib ularning yetishmasligi tufayli hayvon organizmining me`yoriy hayot faoliyati ta`minlab bo`lmaydi.

Agar tabiiy yemlar bilan qishloq xo`jalik hayvonlarining mineral moddalarga bo`lgan talabi kondirilmasa, u holda mineralli ozuqalar qo`llaniladi.

Hozirgi paytda oddiy murakkab mineral aralashmalar keng qo`llaniladi, qaysiki ular hayvon ratsionidagi mineral moddalar miqdorini e`tiborga olgan holda tuziladi.

Mineral ozuqa sifatida osh tuzi, bur travertii uni, molyuska chiganogi yormasi va uni, oxak, suyak uni qo`llaniladi. Ba`zan mineral qo`shimchalarga va omixta yemga kobal't tuzi, yod, marganets, rux tuzlari va boshqalar kushiladi. Bu moddalar sezilarsiz miqdorda olinadi. Birok ularning ahamiyati buyuk, shu sababli bu mineral elyementlar vitaminlar, fermentlar tarkibiga kiradi va hayvon organizmida moddalar almashinuvida faol ishtirok etadi.

Osh tuzi. Osh tuzi omixta yem tarkibiga kontsentratlar aralashmasida maydalangan holda yoki mezuntsov (glibovoy soli) xolida kiritiladi.

U ratsionni natriy va kaliyga boyitadi va shuning bilan birga yemning mazasini yaxshilaydi, hayvonlarning ishtaxasini oshiradi.

Tuproq va suv tarkibida yodi kam bo'lgan erlarda joshlashgan xo'jaliklarda hayvonlar yodlangan tuz bilan boqiladi.

Mineral qo'shimchalar va omixta yem tarkibida ishlatiladigan tuzlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- a) 5% - li eritma byog'ona mazalarsiz toza tuz ta'miga ega bo'lishi kerak;
 - b) xidga ega bo'lmasligi kerak;
 - v) ok rangli bo'lishi kerak, biroq kelib chiqishidan kul rang, sargish va pushti rang ruxsat beriladi;
 - g) kuzga tashlanadigan byog'ona mexaniq ifloslantiruvchilar saqlamasligi kerak;
- Yanchilgan tuz bo'lakchalari razmeridan bog'liq holda quyidagi maydalangan tuzga bo'linadi, tavsiflari 8-jadvalda keltirilgan.

Jadval-10

Osh tuzi navlarining tavsifi

Navi va maydalangan tuz nomeri	Tur burchak teshikli elak razmeri, mm	Elakdan o'tuvchi tuz miqdori, %, ko'p yemas
Oliy va birinchi nav uchun		
№ 0	0,8	90
№ 1	1,2	90
№ 2	2,5	90
№ 3	4,5	85
Ikkinchi nav uchun		
№ 1	1,2	90
№ 2	2,5	90
№ 3	4,5	85

Singan yoki don tuzi donning kattaligida 40 mm gacha ishlab chiqariladi.

Glibovaya tuzi kuskov ko'rinishida 3 kg dan 50 kg gacha ogirlikda ishlab chiqariladi.

Turli navdagi tuzlar fizika - kimyoviy ko'rsatkichlari bo'yicha 9-jadvalda keltirilgan talablarni kondirishi kerak.

Jadval-11

Fizika - kimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha tuz sifati

Navning nomi	Quruq moddaga nisbatan NaCl miqdori, %, kam yemas	Quruq moddaga nisbatan suvda erimaydigan moddalar miqdori, %, ko'p yemas.	Namlik miqdori, %, ko'p yemas	Quruq moddaga nisbatan ba'zi kimyoviy moddalar miqdori, %, ko'p yemas		
				Sa	Mg	Fe ₂ O ₃
Ekstra	99,2	0,05	0,5	-	0,03	0,005
Oliy	98,0	0,2	0,8 dan 4 * gacha	0,6	0,1	-

Birinch	97,5	0,5	0,8 dan 6 gacha	0,6	0,1	-
Ikkinchi	96,5	0,9	0,8 dan 6 gacha	0,8	0,25	-

* - ishlov berish turidan bog'liq holda

Osh tuzida Na_2SO_4 miqdori quruq modda hisobiga nisbatan ruxsat beriladi: " ekstra" navi uchun: 0,2 % , boshqa navlar uchun esa 0,5 % dan ko'p bo'lmagan miqdorda.

Yodlangan tuzning barcha navlari uchun KI miqdori 1 t tuzga 25 g miqdorida ruxsat beriladi.

Tuzning suvli eritmasida barcha navlar uchun lakmusda reaksiya neytral yoki unga yaqin bo'ladi.

Mikroelyementlar. Aytib o'tilganidek omixta yemga makroelyementlar (kal'tsiy, fosfor, natriy, xlor va b.) dan tashqari hayvon organizmida moddalar almashinuvi me'yoriga ta'sir ko'rsatuvchi ba'zi mikroelyementlar ham qo'shimcha sifatida kiritiladi. Mikroelyementlarga: kobal't, mis, rux, marganets va boshqalar kiradi.

Omixta yemga mikroelyementlar tuz ko'rinishida kiritiladi. Yem marganets bilan boyitilganda asosan: Marganets sul'fati tuzi $\text{MnSO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$ va xlorli marganets MnCl ishlatiladi. Mis esa mis sul'fati tuzi $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$, rux - rux sul'fati tuzi $\text{InSO}_4 \cdot 6\text{N}_2\text{O}$, temir - temir sul'fati tuzi $\text{FeSO}_4 \cdot \text{IH}_2\text{O}$, kobal't - kobal't sul'fati tuzi $\text{CoSO}_4 \cdot 7 \text{H}_2\text{O}$, kobal't xlori $\text{CoCl} \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ va sirka kislota kobal'ti $\text{Co}(\text{CH COO}) \cdot 4\text{N}_2\text{O}$, yod - kaliy yoditi ko'rinishida kushiladi.

1 t omixta yem - konsentratga mikroelyementlarni kiritish me'yori 1 g dan 50 g gacha mikroelyement tuzlari ko'rinishida bo'ladi.

2.8. Karbamid va karbamid konsentratlari.

Tayyorlanadigan yemdagi protein miqdori hayvonlarning unga bo'lgan talabani to'la kondira olmaydi. Asosan proteinga bo'lgan o'tkir talab kish davrida qoramollar va qo'ylar ratsionida yetishmasligi seziladi. bu esa ozuqaning ortikcha sarflanishiga, modda almashinuvining buzilishiga, mahsulotning yetishmasligiga va uning tannarxini oshishiga olib keladi.

Fan va amaliyotning ko'p sonli qiymatlari hayvon ratsionini proteinga bo'lgan talabini qisman oqsil bo'lmagan azot saklovchi birikmalar, xususan karbamid (sintetik mochevina) bilan almashtirish mumkin ekanligini tasdiklaydi.

Ma'lum tyemperatura va bosim sharoitida amiak uglerod oksidi bilan ta'sirlanadi va karbamid hosil qiladi. Karbamid $(\text{NH}) \text{CO}$ - ok kristal modda, xidsiz, shurrok - achchik ta'mli, suvda yaxshi eriydi, 46 - 46,3 % azot saqlaydi. sanoatda kristal va granula ko'rinishida ishlab chiqariladi. Granulalangan karbamid kam zichlanib koladi.

Hayvon organizmida azot karbamidining proteinga aylanishi uning oshkozonida ko'p bo'lgan ovqat hazm qilish trakti mikroorganizmlarining xaet faoliyati tufayli sodir bo'ladi. Mikroorganizmlar ajratadigan fermentlar karbamidni ammiak va karbonat angdridga ajratadi. Bakteriyalar ammiakni shuningdek yemdagi parchalanishi mahsulotlari uglevodi oltingugurti va boshqa moddalaridan foydalanib, xususiy jism. Oqsillarini hosil qiladi. Yem bilan birgalikda oshkozonga surilib, mikroorganizmlar yemning tashkil qiluvchi qismi xolida hazm bo'ladi, va ularning oqsili hayvonlar tomonidan ishlatiladi.

Hayvonlar ratsionida ozuqa proteinini qisman karbamid bilan tuldish mumkin. Bunday urin almashish ratsionida faqat proteinlar defitsit, ammo etarli miqdorda yengil hazm bo'luvchi uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalar ushlaganda ham bo'lishi mumkin. Tajribalarning ko'rsatishicha 1kg karbamid 2,6 kg hazm bo'luvchi proteinga ekvivalent. Ratsiondagi ozuqa moddalarning samaradorligini oshirish natijasida 1kg foydalanilgan karbamid qo'shimcha 10kg so't, qoramol ogirligining 2 kg ga, qo'ylar ogirligini 1,5 kg ga vayuvilgan junining 150 g ga oshishini ta'minlaydi. Bunda mahsulot ishlab chiqarish uchun ketadigan yem sarfi 10 - 15 % kun davomida karbamid azotidan foydalanishga moslashadi. Karbamid bilan borkanda quyidagilar e'tiborga olinishi kerak: karbamid yem bilan yaxshi aralashtirilgan bo'lishi, hayvonlarni karbamidga doimiy ravishda so'tkasiga 10-20 g dan boshlab urgatib borish, urnatilgan me'yorni yemga kun davomida teng miqdorlarda bo'lib berish kerak. Karbamid bilan borkanda uzulish bo'lmasligi kerak, uzilish majburan bo'lganda, bir necha kun davomida hayvonlarni karbamidga qayta urgatish lozim. Karbamid bilan bokishning kunlik me'yori quyidagicha urnatilgan: 100-120 g sigirlar uchun, 6 oydan katta bo'lgan yosh qoramollarga 40-50 g boqiladigan qoramollar uchun 50-90 g, ona qo'ylarga 13-18 g, 6 oylikdan katta bo'lgan yosh qo'ylar uchun 8 - 12 g.

Karbamid ratsionga tavsiya qilingan me'yorda kiritilishi lozim. Ortikcha karbamid hayvonlarning zaharlanishiga olib keladi. Omixta yemga karbamid katta miqdorda kiritilsa yemning xushxurligi pasayadi.

Karbamid granulalangan omixta yemga melassada eritib kushilsa katta samaradorlikka erishiladi. Bunda omixta yemning uz - uzidan joylashuvi sodir bo'lmaydi, melassa esa uning yaxshi hazmini ta'minlaydi, bundan tashqari, granulada kamalgan karbamidning ajralishi hayvon oshkozonida ancha sekinlashadi.

Karbamidli omixta yem bilan faqat kavsh qaytaruvchi hayvonlar boqiladi, ya'ni uni boshqa hayvonlarga berish ruxsat etilmaydi. Bunday yemlar boshqa yemlarga aralashtirilmasdan aloxida saqlanadi. Karbamid kontsentrati ishlab chiqarish nalajen U don aralashmasi, karbamid va natriy bentonitini ekstrudirlab aralashtirish yo'li bilan tayyorlanadi. Karbamid kontsentrati boshqa yemlar bilan beriladi yoki omixta yem, oqsil - vitaminli qo'shimcha tarkibiga kiritiladi.

2.9. Pichan, somon va pichan uni.

Pichan (xashak) o'tlarni tabiiy shamol va qo'yosh bilan shunday kuritib olinadiki, bunda o'simlik massasi uzok vaqtgacha buzilmasdan saqlanishi mumkin. Hozirgi paytda kuritish statsionar va harakatlanuvchi kuritgichlarda amalga oshiriladi. o'tlarni atmosfera yoki kizdirilgan xavo bilan kuritish qo'llana boshlandi.

Olingan pichan qoramol, ot va qo'ylarning ogildalik davri uchun dag'al, keng hajmli ozuqasini namoyon qiladi.

Pichanning ozuqaviyligi va mazaligi kator omillardan bog'liq: o'tning botaniq tavsifidan, tuprok-iklim sharoitidan, yigim vaqtidan va usulidan, yigim vaqtidagi iklimdan.

Tarkibida dukkakli va boshokli ekin o'tlarini saqlagan pichan katta ozuqa qiymatiga ega. Uz navbatida pichanning botaniq tarkibi sezilarli darajada tabiiy tuprok iklim sharoitlaridan bog'liq. Pichanning sifati, shuningdek yigim vaqtidan ham bog'liq,

chunki yigim kechga kolganda uning tarkibida katta miqdorda kletchatka yigiladi, pichandagi ozuqa moddalarning hazmi kamayadi, xushxurligi yukoladi.

O`tlarni sun`iy kuritganda ko`p miqdordagi vitaminlar va to`laligicha oqsil saqlanadi. SHuningdek yemning kimyoviy tarkibi bo`yicha barcha komponentlarning uzlashtirilishi oshadi.

Bundan tashqari pichan sifatini aniqlovchi asosiy omillarga uni saqlash sharoitlari va davomiyligi ham kiradi. SHundan bog`liq holda qabul qilish punktlarida preslashmagan pichan uchun saqlash muddati maksimum bir yil, preslashgan pichan uchun esa-uch yil.

YAxshi sifatli pichan to`lakonli oqsillar, uglevodlar, mineral moddalar va vitaminlarning manbai hisoblanadi 100 kg pichan tipidan bog`liq holda 52 - 35 ozuqa birligiga 11,6 - 3,6 kg hazm bo`luvchi proteinga teng.

Cho`chqa va parrandalar uchun vitaminli pichan uni ishlatiladi, u esa sun`iy kuritilgan o`tlarni maydalab olinadi. O`t pichan uni vaqtli urib olingan yaxshi pichandan (dukkakli va dukkak - boshokli o`tlar) tayyorlanadi. shuning uchun bunday pichan tarkibidagi protein, kal`tsiy va karotinning yuqori miqdori bilan tavsiflanadi. Masalan, sun`iy kuritilgan vika - suli unining 100kg da 68 ozuqa birligi, 12,3 kg hazm bo`luvchi protein, 1330 g kal`tsiy, 300 g fosfor, 16 g karotin bor.

Yem sifatida, vitamin va mineral moddalarga boy bo`lgan ninabarglilar uni ham ishlatiladi. ninabarglilardan karagay, el yoki mojeviya ninalarini kuritib, yanchib tayyorlashadi. Barra ninabarglarning (45% gayaqin suv) 100 kg da 15 ozuqa birligi, 1,1 kg hazm bo`luvchi protein 310 g kal`tsiy 90 g fosfor, 7 g karotin bor.

O`simliklardan olinadigan yem omixta yem tayyorlashda keng qo`llaniladi. Pichan ot va qoramollar omixta yemida 50%gacha, pichan uni - cho`chqa bolalari, buzoklar va parrandalar uchun muljallangan yemning 5 - 10% ni tashkil qiladi; ninabarglilar uni parrandalar, cho`chqa bolalari, yemizuvchi cho`chqalar va buzoklar yemi uchun 3% miqdorida ishlatiladi.

Otlar uchun briketlangan omixta yem tarkibiga kiritiluvchi pichan namligi 17% dan oshmasligi hamda zararli va zaharli o`tlar miqdori 1% dan oshmasligi kerak.

Somon omixta yem sifatida qiymati past bo`lib, qo`yi ozuqaviy xossaga ega. Bahorgi bugdoy somonining 100 qilogrammi 20 ozuqa birligiga teng va 1,2 kg hazm bo`luvchi protein saqlaydi.

Pichan va somonning sifati bir kancha ko`rsatkichlari bilan tavsiflanadi.

Rangi. Pichan va somonning rangi zarur ko`rsatkich bo`lib, ularning yemboplik xossalarini tavsiflaydi. Pichan rangi o`tning yoshidan, yigim vaqtidagi iklimdan, yigim vaqtidan, kuritish tavsifidan, shuningdek saqlash sharoitidan bog`liq.

Pichan tipidan bog`liq bo`lmagan holda yashil rangli bo`lishi kerak.

Bugdoy, arpa va suli somoni kungir tugunchali sarik rangli va tarik somoni - yashil rangdan koramtir - yashil ranggacha bo`ladi.

Pichan va somon rangining korayishi odatda faol mikrobiologik jarayonlarning borayotganligini bildiradi, uning sifatini keskin yomonlashtiradi.

Xidi. Pichan va somon uziga xos toza xidga ega bo`lishi kerak. Birok o`tning yoshidan, yigim davridagi xavo va saqlash sharoitlaridan bog`liq holda kuchli o`zgaradi. Dimikkan va chirindi xidi nosoglom pichan va somonga xos bo`lib, mikrofloralarning faol rivojlanishi kechayotganligini bildiradi.

Pichan va somon xidini kuchaytirish uchun ularning to'amlaridan stakanga solinadi, ustidan kam-kam miqdorda issik suv solinadi (ulchanmaning to'la namlanishi uchun) stakan shisha bilan berkitiladi. 2 - 3 minotdan keyin pichan va somonning kizishgan xidi aniqlanadi.

CHangdorlik. Bu ko'rsatkich pichan va somonning tuprok bilan ifloslanganligini, mikroorganizmlarning juda mayda chirindi yoki sporalari bilan ifloslanganligini tavsiflaydi. changdorlik pichan yoki somonni arava, garam yoki kip o'rtasidan olingan boglamni kokish yo'li bilan aniqlash mumkin. Pichan va somon eng changli hisoblanadi, chunki kokkanda chang bo'lo'tchalarini hosil qiladi.

Garamki kipning o'rta katlamida pichan va somonning korayishi, odatda ular massasi ichidagi uz - uzidan kizish jarayonidan bog'liq bo'lgan asal xidi bilan kuzatiladi. Kizish pichan va somon uyumi, garam va kipning o'rta qismini tekshirish yo'li bilan aniqlanadi.

Buzilgan pichan va somonning mavjudligi. Buzilgan partiyalarga mogorlagan , ifloslangan va chiriganlari kiradi. Bu ko'rsatkich pichan va somonni tashqi tomonidan kuzatish hamda kip va garam o'rtasini tekshirish yo'li bilan urnatiladi.

Namlik pichan va garamni saqlash xavfsizligi ta'minlovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Namlik o'tkir pichok bilan uzunligi 0,2 - 1 sm ga yaqin bo'lakchalar shaklida maydalangan pichan va somondan 5 g ulchanma olib aniqlanadi. Ulchanma kuritish shkafida 40 min davomida 130⁰S tyemperaturada kuritiladi.

Somon tarkibida ifloslantiruvchi va zaharli o'tlarning miqdori. Somonning o'rtacha namunasidan quyidagi fraktsiyalarga ajratish uchun 100-300 g ulchanma olinadi:

1) toza somon; 2) byog'ona o'tlar; 3) dag'al va eb bo'lmaydigan o'tlar; 4) zararli va zaharli o'tlar Aloxida fraktsiyalar ogirligi foizlarda ifodalanadi.

2.10. Xom ashyo xossalari.

Omixta yemning xossalari uning tavrkibiga kiruvchi kamponentlar bilan beklgilanadi. Asosiy sifat ko'rsatgich - bu kamponentlarning biologik ta'siri uning ozuqaviyligi. Birok omixta yem zavodlarini loyixalovchilar, jixoz konstruktorlari, ishchilar xom ashyoning fiziko – kimyoviy xossalari ham e'tiborga olishlari kerak. Texnologik transport jixozlar qayta ishlanadigan to'liq xom ashyoni kerakli tayyorlashni ta'minlashi kerak. Texnik jarayonining sozligi esa yuqori sifatli mahsulot chiqarish imkonini beradi. Xom ashyo va mahsulotning sifati saqlash jarayonidan pasaymasligi kerak. Bo'larning barchasiga xom avshe va tayyor mahsulotning texnik xossalari hisobga olgan holda erishiladi.

Barcha turdagi xom ashyolar xilma – xil fiziko – kimyoviy va strukturali - mexaniq xossalarga ega. Birok xom ashyoni 2 guruxga ajratish mumkin: sochiluvchi va suyuq kamponentlar. Omixta yem ishlab chiqarish uchun taklif qilinaetgan har bir yangi kamponent joriy texnologiya talablariga mos kelishi eki sun'iy tarzda unga olib kuelishi darkor, masalan: kuritish, granulalash orqali. Zaruriyat tugilganda uni qabul qilish uchun maxsus texnologiya eki texnologik liniya ishlab chiqiladi.

Sochiluvchan xom ashyoni texnik xossalari tavsiflovchi asosiy ko'rsatgichlar – bu zarrachalar kattaligi, strukturali mexaniq xususiyatlar, hajmiy ogirlik, bushlilik, aerodinamik xossalari, tabiiy ogish burchagi, kovushkoklik va x.k.

Zarrachalari kattaligi. Har bir sochiluvchan komponent asosiy mahsulot va byog`ona aralashmalarning turli kattalikdagi va shakldagi zarrachalar aralashmasi ko`rinishdagi bo`ladi. Omixta yem sanoatdagi sochiluvchan xom ashyo byog`ona aralashmalardan asosiy ishchi organlari elak bo`lgan mashinalarda tozalanadi. Odatda 2 xil elaklar urnatiladi: birinchisi: tasodifan tushgan aralashmalarni ajratish uchun katta yachaykali, ikkinchi: asosiy mahsulotni yukotmasdan aralashmalarni maksimal darajada ajratish uchun (eki asosiy mahsulotni 2 ta fraktsiyaga ajratish) tanlanadi.

Xom ashyoning strukturali – mexaniq xossalari. Texnologik jarayonning borishiga katta ta`sir kurtsatadi. Bunday xossalarga donli xom ashyo uchun don shakli, namligi, mikroeriklar borligi, endosperm strukturasi, qobiqdorligi. Qobiqdorlik maydalashga sarflanadigan energiyani oshiradi. Agar bugdoyni maydalash uchun energiya sarfi 100% deb qabul qilinsa, jardar uchun 135 ga, arpagaga – 175 va suliga 325% ga teng bo`ladi.

Hajmiy ogirlik. Hajm birligida sochiluvchan xom ashyo zarrachalarining joylashish zichligini tavsiflaydi. Mashinalarning unumdorligi, omborlarning sigimi xom ashyolarning hajmiy ogirligiga bog`liq.

Bushlilik. Xom ashyo omborlarda eki siloslarga joylashtirganda zich massa hosil qilmaydi. Uning kattik komponentlari orasida erkin bushliklar koladi, qaysiki bu bu oralik xavo bilan tulgandir. Xom ashyoning joylashuv zichligi va ular orasidagi bushlik xom ashyo massasining umumiy hajmiga nisbatan foizlarda ifodalanadi. Xom ashyo massasining joylashuv zichligi va ular orasidagi bushlikning mavjudligi saqlashda katta amaliy ahamiyatga ega.

Aerodinamik xossalari. Bu xossalar donli xom ashyodan yengil aralashmalarni galvirlar erdamida ajratib bo`lmagandi e`tiborgsha olinadi. Bunday aralashmalar mahsulotdan xavo okimi ta`sirida ajratiladi. Aerodinamik xoschalarining turlichaligi natijasida donli xom ashyodan yengil aralashmalarning ajralishi sodir bo`ladi.

Tabiiy kiyalik burchagi. Don massasi uzida turli xil komponentlarni sakdlaydi, bu esa donning okuvchanligiga ta`sir ko`rsatadi. Okuvchanligi tufayli xom ashyo massasi noriyaldarda, transporterlarda va boshqa mashinalardva oson harakat qiladi. SHuningdek, xom ashyoni bunkerlarga, siloslarga joylashtirishda va uzi okizar kuvular erdamida ularning chiqarib olishda ushbu xususiyati askatadi. Saqlash jarayonida okuvchanlik kamayadi.

Tabiiy kiya burchagi deb sochiluvchan aralashmaning gorizontal tekistlikka tushib hosil qilgan konus asosining diametri bilan tashkil qiluvchisi orasidagi burchakka aytiladi.

Ishkalanish burchagi deb sochiluvchan aralashmaning kiya yuza buylab harakatga kela boshlagan eng kichik burchagiga aytiladi.

Xom ashyoning okuvchanligi darajasiga xom avshe massasidagi kattik jismlarning granuldametrik tarkibi va tabiati ta`sir ko`rsatadi. Bo`lar don va aralashmalar yuzasining holati, tapvsifi, shakli, ulchamlari, namligi, aralashmalarning tarkibi va miqdori, shuningdek sirkanuvchi yuzadan, materialdan va shaklidan iborat.

Don massasining namligi oshib borgan sari uning rkuvchanligi kamayadi va aksincha, tabiiy kiya burchagi ortib boradi.

Koida bo`yicha, uzi okizar kuvurlarning minimal ogish burchagi ishkalanish burchagidan  $5...10^0$  ga ko`proq qabul qilinadi.

Bur va tuzning sochiluvchan xossalarning uzgarishiga ulardagi namligi ta'sir ko'rsatadi. Tuzning namligi 1% gacha va burning namligi 6% gacha bo'lganda yaxshi sochiluvchanlikka ega.

Kovushkoklik. Suyuk komponentlarning (melassa, yog`, fosfatid konsentratlari) texnik xossalari asosan kovushkokligi bilan belgilanadi. Omixta yem sochiluvchan massasi bilan suyuk komponentni byuir tekisda aralashtirish aynan kovushkoklikka bog'liq: kovushkoklik kanchalik past bo'lsa, aralashtirish shunchalik yaxshi kechadi. Melassa, yog`, fosfatid konsentratlari omixta yem tayyorlashning texnik jarayoniga kiritilganda isitiladi, chunki isitishda ularning kovushkokligi kamayadi.

Uz – uzidan sarflanishi. Tayyor omixta yem ulchami shakli va zichdligi turldicha bo'lgan zarrachalararaldashmasi ko'rinishida bo'ladi. Omixta yem harakati jarayonida, ayniksa erkin tushishida (silosda) zarrachalarning bir – biriga nisbatan uzaro joylashuvi sodir bo'ladi. Bu uz – uzidan saralanish jarayonidir. Uz – uzidan saralanishda nisbatan kichik zarrachalar pastga tushishi natijasida omixta yem – sifati buzilishi mumkin. Ma'lum darajada suyuk komponentlarning kiritilishi sochiluvchan aralashmaning uz – uzidan saralanish jarayoniga tuskinlik qiladi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Omixta yem zavodlarida qanday turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish?
2. Omixta yem uchun ishlatiladigan xom ashyoning umumiy tavsifini keltiring va ularning omixta yemdagi ahamiyati nimadan iborat?
3. Omixta yemga kiritilgan vitaminlar nima vazifani bajaradi?
4. Xom ashyo xossalari izohlang.

Tayanch iboralar:

To'liq ratsionli omixta yem, omixta yem konsentratlari, yu oqsil vitaminli qo'shimchalar (OVK), ozuqabop arpalar, pryemikslar, karbamid konsentratlari, so't urnini bosuvchi mahsulotlar; boshokli va dukkakli donlar, yog` moy sanoati chikndilari, boshqa sanoatlar chiqindilari; mineral xom ashyo, mikroqo'shimchalar, vitaminlar, xom ashyo xossalari.

Mavzu № 3. OMIXTA YEM ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI

Reja:

- 3.1. Xom ashyoni qabul qilish, joylashtirish, saqlash va uni ishlab chiqarishga uzatish.
- 3.2. Omixta yem zavodlarida xom ashyoni ajratish.
- 3.3. Donlarni va omixta yem ingredientlarini maydalashning nazorat asoslari.
- 3.4. Pustlokli ekinlarningg pustini ajratish.
- 3.5. Komponentlarni dozalash.
- 3.6. Omixta yem komponentlarini aralashtirish.
- 3.7. Omixta yemga suyuk komponentlarni kiritish
- 3.8. Omixta yemga karbamidni kiritish
- 3.9. Don va omixta yemga gidrotermik ishlov berish

3.10.Omixta yemni granulalash

3.11.Granuladan yormacha olish texnologiyasi

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mionchinskiy P.N., Kojarova L.S. Proizvodstvo kombikormov, M.: Agropromizdat, 1991 g.
2. Yog'orov G.A. Texnologiya muki, krupi i kombikormov, M.: Agropromizdat, 1986 g.
3. Maznik A.P, Xazina Z.I. Spravochnik po kombikormam, M.: Kolos, 1982 g.

3.1. Xom ashyoni qabul qilish, joylashtirish, saqlash va uni ishlab chiqarishga uzatish.

Xom ashyoni qabul qilish. Omixta yemni rejalashtirilgan assortimentda ishlab chiqarish va korxona ishining uzluksizligini ta'minlash uchun xom ashyoning barcha turlari bo'yicha ma'lum zaxira tashkil qilinadi, hamda sistyematik ravishda tuldirlib boriladi. Ishlov beriladigan xom ashyoning asosiy miqdori temir yo'l transportidan va faqat katta bo'lmagan qismi avtomobil transportidan etkazib beriladi.

Xom ashyo sochma holda (don, kepak, tuz, bur va boshqalar) va idishlarda (gusht suyagi uni, baliq uni, achitki, pryemikslar, ozuqa fosfati va boshqalar) kelib tushadi.

SHunday qilib zamonaviy omixta yem zavodlarining me'yoriy harakatlanishida temir yo'l transporti va avtomobil uchun yo'llar, temir va avtomobil yo'llaridan xom ashyoni qabul qilish uchun mexanizatsiyalashgan kurilmalar va xom ashyoni sochma hamda idishlashtirilgan ko'rinishida saqlash uchun omborlar bo'lishi kerak. Bu omborlarda xom ashyoni ishlab chiqarishga uzatish uchun mexanizmlar bo'lishi kerak. Idishlardagi xom ashyo oddiy omborlarda, sochiluvchan ko'rinishli xom ashyo asosan silos tipidagi omborlarda va zaruriyat tugildangina oddiy omborlarda saqlanadi. Sun'iy yo'llarda xom ashyoni idishsiz holda etkazib berishi ortib borayapti, buning natijasida idish uchun, shuningdek ishlab chiqarish joyida xom ashyoni idishlarga joylashtirish va iste'mol joyida idishsizlantirish uchun ketadigan harajat kamayadi.

Xom ashyoni joylashtirish. Zavodda mavjud bo'lgan omborlarga xom ashyoni to'g'ri joylashtirish uchun, ya'ni ishlab chiqarishga xom ashyoning barcha turlarini uzatish imkonini yaratish, shuningdek uni saqlashni ta'minlash maqsadida xom ashyoni joylashtirishning oylik operativ rejasi tuziladi. Bu rejani korxonaning direktor urinbosari, omixta yem va tashuvchi-ombor tsexi boshliklari, ishlab chiqarish texnik laboratoriya, hamda xom ashyo omborlari mudirlari bilan birgalikda tuzadi va uni korxona direktori tasdiklaydi. Reja zaruriyat tugilganida, uzgartirilishi okibatida, masalan, etkazib beriladigan xom ashyoning sifati va muddati uzgarganda aniqlik kiritiladi. Xom ashyoni joylashtirish sxemasi tugilganda mavjud omborlar sigimidan ratsional foydalanish zaruriyati, xom ashyoning sifatini (masalan, ho'l proteinning turlicha miqdoriga ega bo'lgan baliq uni partiyalari aloxida shtabellarga joylashtiriladi). e'tiborga olgan holda joylashtirish, saqlash jarayonida xom ashyoni minimal darajada tashish zaruriyati e'tiborga olinadi. Xom ashyoni joylashtirish rejasini tuzishda ombor maydonining 10 foizi, omborchi ishlarini o'tkazish uchun rezervlanadi, elevatorlarda esa har bir silos osti konveyeri uchun bitta silos zaxira uchun saqlanadi.

Xom ashyoni saqlash. Saqlanayotgan xom ashyo uchun sistyematik kuzatuv urnatiladi. Saqlashga chidamsiz xom ashyo, ishlab chiqarishga birinchi navbatda uzatiladi. Xom ashyo sifatining yomonlashuvi holati yoki saqlashda uz-uzidan kizish holati kuzatilganda uning chidamliligini ta'minlovchi va bu xom ashyoni omixta yem ishlab chiqarishga qo'llash uchun zarur chora-tadbirlar o'tkaziladi. Sochiluvchan xom ashyoning (masalan, mineral kelib chiqishli xom ashyolarning barcha turlari) ba'zi turlarini aralashtirish imkoni bo'lmasa, oddiy omborlarda o'rtasiga chegara (periyog'orodka) qo'yiladi. Kiyin okuvchan xom ashyoni (kunjara, kepak va boshqalar) silosli omborlarda saqlashda silos tubiga max moslama urnatiladi va bu moslama silosdagi mahsulot okimiga turtki bo'ladi. Silosda saqlanayotgan xom ashyo sistyematik ravishda e'tiborli nazorat qilinishi kerak, bu esa uning jipslashuvi va uz-uzidan kizishiga yo'l qo'ymaydi. Kunjara saqlanadigan siloslar uning turli chukurligida tyemperaturani sistyematik kuzatishga imkon beradigan termometrlar bilan kurollangan.

Bur, tuz va boshqa mineral kelib chiqishli xom ashyolar boshqa turdagi xom ashyolardan ajratilgan holda aloxida yopik binolarda saqlanadi.

Tuzlarni saqlashda shuni nazarda to'tish kerakki, u namikib, shtukaturkani, beton devor va pollarni yemiradi. SHuning uchun tuz uchun muljallangan omborlar poli va devori yogoch taxtalar bilan koplanadi. So'tali makkajuxori atmosfera namligi tushmaydigan ayvonga yoki omborlarga joylashtiriladi va saqlanadi. So'tali makkajuxorini bevosita erda saqlashga ruxsat berilmaydi.

Xom ashyo uchun muljallangan ombor binolari aniq texnik va sanitar talablarni kondirishi kerak: sozlangan tomi, zich yopiladigan eshiklar, sillik yoriksiz polga; toshli, temir betonli hamda gishtli ombor devorlari quruq, shtukaturkalanagan, va okar suvlardan yaxshi izolyatsiyalangan bo'lishi, yogoch ombor devorlari esa zich va yoriksiz bo'lishi kerak. Barcha omborlarda devorlar oklangan bo'lishi kerak; pol tipidagi omborlarning barcha chiqarish voronkalari ustidan vertikal ustunlar urnatiladi. Ombor derazalari oynalanganligini va ichki tomonidan tur va tur ushlagich bilan uralgan ligini; elektr chiroklari metal armaturalar zarbidan ximoyalovchi mustaxkam ximoya kalpoklariga ega ekanligini kuzatib borish lozim.

Omborlar perimetri bo'yicha tashqi tomonidan 1,5 m dan kam bo'lmagan yo'lakka va hamda ega bo'lishi va bo'lar hamma vaqt toza va gaz holatda saqlanishi lozim. Barcha omborlarda xom ashyoni ombor ichida harakatlantiruvchi, shuningdek uni ishlab chiqarishga uzatuvchi mexanizatsiyalar bo'lishi kerak.

Omborlar xom ashyodan bushatilgandan keyin ularda yaxshilab mexaniq tozalash amalga oshiriladi va bunda mos inventarlar (changyo'tgich, shvabra, cho'tka va b) bo'lishi kerak. Xom ashyoni silosga tukishdan oldin uning tubi va devorlari yaxshilab tozalanadi. Omborlarda tozalikni saqlash va unga loy, zaharli mikrofloralarni tashishni oldinini olish maqsadida har bir omborxonaning kirish eshigi oldida tushakcha, cho'tka va oyok kiyimini tozalash uchun supurgi bo'lishi kerak.

Xom ashyo tyemperaturasi va namligining, shuningdek atrof muhit tyemperaturasi va namligining oshishi bilan xom ashyoni saqlash sharoitlari yomonlashadi. Sun'iy kuritilgan kunjara va pichan ozuqasini saqlash sharoitlari ularni saqlash bo'yicha ishlab chiqilgan maxsus instruktsiyaga binoan bir kancha uzgachilikka ega. Kunjara va shrot omixta yemning amalda qo'llaniladigan barcha turi uchun asosiy xom ashyo turlaridan biri hisoblanadi. Kunjara va shrotning saqlash jarayonidagi chidamliligini

ta'minlash uchun ombor xonalar shamollatiladi. SHamollatish quruq, sovuk xavoda, ya'ni tashqi xavoning tyemperaturasi va nisbiy namligi omor xavosining mos ko'rsatkichlaridan, past bo'lganda o'tkaziladi. Kunjara va shrot omborlari yonginga karshi inventarlar va o't uchirish vositalari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Moy ishlab chiqarish jarayonida yuqori tyemperaturali va past namli shrot olinadi. Bunday holda shrot saqlashga chidamsiz va xattoki tashish davrida namlikni jadal yo'tishi uz-uzidan kizish jarayonining rivojlanishiga, tyemperaturaning oshishiga olib keladi, bu esa uz-uzidan yonishiga, ma'lum sharoitlarda xattoki portlashga sabab bo'lishi mumkin.

Esda to'tish kerak: issiklik manbai (shrot bo'lakchalarining kizishi, statik elektr toki uchuni va b) mavjud bo'lganda shrot changi bilan xavo aralashmasi portlashi mumkin. Portlash sababi yopik sigimlarda (silos, bunker) shrot ajratib chiqaradigan benzin buglarining mavjudligi sabab bo'lishi mumkin. SHuning uchun shrot kelib tushganda uning tarkibidagi benzin koldiklari mavjud bo'lsa, shamollatiladi. SHrotida ekstraksion benzin koldigi 0,1% dan ortik bo'lmasligi kerak. SHrotida benzin xidi kuzatilgan holatda uni saqlashga joylashtiridan oldin mexanizm zanjiri orqali shamollatish uchun o'tkaziladi. SHrot saqlashga 35⁰S dan yuqori bo'lmagan tyemperaturadan joylashtiriladi, yozda esa kunjara tyemperaturasi xavo tyemperaturasiga nisbatan 5⁰S dan oshmasligi kerak. Omborda barcha tashish mexanizmlari yaxshi germetik va bo'lishi va yaxshi aspiratsiya qilinishi kerak. Kunjara va shrotlarni pol tipidagi omborlarda, shuningdek balandligi 18 m dan yuqori bo'lmagan siloslarda saqlash mumkin.

Agar saqlashda kunjara va shrot tyemperaturasi oshsa, ularni silosdan silosga xaydash yo'li bilan sovo'tish lozim va uz-uzidan kizish uchogining hosil bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Uz-uzidan kizish uchogi yuzaga kelganda uni bartaraf qilishning tezkor chora-tadbirlarni qo'llash zarur: ombordagi barcha ishlarni tuxtatish, barcha mashina va mexanizmlar ishi tuxtalishi, shuningdek aspiratsiyani uchirish, xizmat qiluvchi xodimlarni evakuatsiya qilish va tezda o't uchiruvchilar komandasini chakirish kerak.

Omixta yem zavodlariga pichan uni jamoa xo'jaliklaridan taralarda (asosan kogoz xaltalar) yoki donador ko'rinishda tarasiz holda kelib tushadi. Donador un metall yoki temirbeton siloslarda, shuningdek oddiy omborlarda saqlanishi mumkin. Pichan uni miqdoridan bog'liq holda sinflar bo'yicha va tayyorlov muddati bo'yicha omborga aloxida joylashtiriladi.

Pichan unini saqlash jarayonida undagi karatin miqdori kamayadi. Noto'g'ri saqlashda, yoruglikda, yuqori namlikda va tyemperaturada bu jarayon tezlashadi. SHuning uchun pichan unini saqlashga muljallangan omborxona binolari toza, nur tushmaydigan, isitilmaydigan, eshiklari zich yopiladigan bo'lishi kerak. Bundan tashqari pichan uni omborxonalari yonginga karshi xavfsizlik talablariga javob berishi, ombor binolari yonginga karshi brantmaueralar bilan ajratilishi, bu esa 1200 m ko'p bo'lmagan bir kavat maydonida bo'lishi va portlash yongin xavfi bo'yicha B guruxi ishlab chiqarish katyog'oriyasiga mos kelishi lozim. Konveyerlarni o'tkazish uchun brantmauera devorlaridan teshiklar ochmaslik kerak. Pichan uni omborlari boshlangich yongin uchirish vositalari irish vositalari an bo'lishi shart.

Un namligi saqlashga tushirishdan oldin 8-12% bo'lishi kerak.

Pichan uni omixta yem zavodlariga ishlab chiqarish jarayonida tasodifiy kolgan chuglangan bo`lakchalarning yonib kyetish xavfining oldini olish maqsadida uni tayyorlash vaqtidan uch kun etkazib beriladi.

Aralashtirgich, odatda, bir kavat pastda joylashtiriladi, joy bo'lmaganda - xoxlagan kavatda. Bunday holatda komponentlar dozatoridan noriya orqali aralashtirgichga beriladi. Dozalashning asosiy liniyasida 2 tadan kam bo'lmagan ko'p komponentli dozatorlar (10DK-2500 va 5DK-200) urnatiladi. Dozalash-aralashtirish tsikli 5...6 mino't davom etadi, shundan 4 mino't aralashtirishga sarflanadi. Aralashtirishning ish vaqtini kamaytirgan holda dozalash-aralashtirish liniyasining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin.

4.11. Omixta yemni uzatish liniyasi

Omixta yem zavodlarida ishlab chiqarilgan mahsulot aniq vaqt davomida iste'molchilarga uzatish maqsadida saqlanadi. Tayyor mahsulotni saqlash uchun har bir zavodda kamida besh kunlik ishlab chiqarilgan mahsulotni saqlashni ta'minlaydigan omborlar mavjud. Omixta yem sochma va granulalangan ko'rinishda holda oqsil-vitaminli qo'shimchalar tara yoki sochma holda saqlanadi.

Tayyor mahsulot omborlari yonida omixta yemni uzatish uchun maxsus uzatish kurilmalari urnatilgan bo'lishi kerak. Temir yo'l vagonlariga omixta yem lyuklar orqali vagon kopkogiga yuklatiladi.

Omixta yem tashishning eng kulay usuli avtomobil' transportlarida amalga oshiriladi, omixta yem bir necha mino't davomida uzatish bunkerlaridan yuklatiladi. Bu maqsadda ZSK-10 quruq yemlar yuklatgichi keng ishlatiladi.

Omixta yemni markazlashgan holda etkazish ham bugungi kunda keng tarkalgan. Zavod iste'molchi bilan kelishilgan grafikka muvofiq doimiy tarzda avtomobil' transportda iste'molchiga omixta yem etkazib turadi, bunda omixta yem uzatishni avtomobil' xaydovchilari orqali rasmiylashtiriladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Omixta yem ishlab chiqarish texnologik jarayoni qanday liniyalardan tashkil topgan?
2. Donli xom ashyo qanday uskunalarda tayyorlanadi?
3. Qobiq ajratishning qanday usullari mavjud?
4. Oziq-ovqat sanoatining ozuqa mahsulotlari liniyasi nimalardan iborat?

5. Mineral xom ashyo liniyasini tavsiflang.
6. Dozalash-aralashtirish liniyasi ishining tsiklogrammasini tasvirlang.
7. Kiyin sochiluvchan xom ashyoni oldindan dozalash nima maqsadda bajariladi?
8. Omixta yem zavodida tayyor mahsulot kaerda saqlanadi?
9. Tayyor mahsulotlarni uzatishning qanday kurilmalari mavjud?

Tayanch iboralar:

Texnologik sxyema, texnologik liniya, donli xom ashyo liniyasi, kobigli xom ashyo, donli xom ashyo, un va yorma sanoati chiqindilari, presslangan va yirik bo`lakli mahsulotlar, ozuqa mahsulotlari, mineral xom ashyo, suyuk komponentlar, dozalash, aralashtirish, uzatish kurilmalari, tsiklogramma.

Mavzu № 5. OQSIL-VITAMINLI QO`SHIMCHALAR, PRYEMIKSALAR, KARBAMID KONTSENTRATLARI, OZUQA ARALASHMALARINI ISHLAB CHIQUARISH VA ULARNING RETSEPTLARINI TUZISH.

Reja:

- 5.1. Oqsil-vitaminli qo`shimchalarni ishlab chiqarish.
- 5.2. Pryemikslarni ishlab chiqarish
- 5.3. Pryemikslar uchun qo`llaniladigan xom ashyo turlari.
- 5.4. Pryemikslar ishlab chiqarish texnologiyasi.
- 5.5. Pryemikslar ishlab chiqarish liniyalari
- 5.6. Karbamid kontsentratlari ishlab chiqarish.
- 5.7. Dag`al xom ashyodan ozuqa aralashmalarni ishlab chiqarish.
- 5.8. Oqsil-vitaminli qo`shimchalar, omixta yem, ozuqa aralashmalari va pryemikslarning retseptlari.
- 5.9. Retseptlarni tuzish va foydalanish tartiblari.
- 5.10. Retseptlarni tuzishda eXMdan foydalanish.

Adabiyotlar:

1. Mionchinskiy P.N., Kojarova L.S. Proizvodstvo kombikormov, M.: Agropromizdat, 1991 g.
2. Maznik A.P., Xazina Z.I. Spravochnik po kombikormam, M.: Kolos, 1982 g.

5.1. Oqsil-vitaminli qo`shimchalarni ishlab chiqarish.

Oqsil-vitaminli qo`shimchalar (OVK) – omixta yem sanoati ishlab chiqarayotgan asosiy mahsulotlardan biri hisoblanadi. Oqsil-vitaminli qo`shimchalar asosan yirik shoxli hayvonlar va kam hajmda cho`chqalarni bokish maqsadida ishlab chiqariladi.

Oqsil-vitaminli qo`shimchalarni ishlab chiqarish quyidagi asosiy operatsiyalardan tashkil topgan:

- xom ashyoni qabul qilish, joylashtirish va saqlash;
 - qabul qilinayotgan xom ashyoning sifatini nazorat qilish;
 - xom ashyoni ishlab chiqarishga uzatish;
 - texnologik liniyalarda xom ashyoga ishlov berish:
- 1) donli xom ashyoni tayyorlash;
 - 2) unli xom ashyoni tayyorlash;
 - 3) oziq-ovqat sanoatining ozuqa mahsulotlari, kunjara va shrotlarni tayyorlash;
 - 4) mineral xom ashyoni tayyorlash;
 - 5) dozalash va aralashtirish;
 - 6) granulalash (shart yemas);
- tayyor mahsulotlarni omborga uzatish, uni joylashtirish, saqlash va iste`molchilarga yuborish.

Oqsil-vitaminli qo`shimchaltaminli qo`shimchalish texnologik jarayoni omixta yemni ishlab chiqarishga uxshash. Birok ba`zi texnologik liniyalarning kuvvati, ishlab chiqarish samaradorligi farq qiladi. Masalan, oqsil-vitaminli qo`shimchalar ishlab chiqarishda donli xom ashyoni tayyorlash liniyasining kuvvati omixta yem ishlab chiqarishnikidan 2,5 marotaba kam, unli xom ashyo liniyasi – 2 marotaba kam,

va aksincha, shrotlarni tayyorlash liniyasining kuvvati 2 marta ko'p, mineral xom ashyo liniyasi 2,5 marta, pryemikslar liniyasi esa 5-6 marta ko'p bo'lishi kerak.

Omixta yemni ishlab chiqarishdan oqsil-vitaminli qo'shimchalar ishlabchikarishga o'tuvchi omixta yem zavodlarida tashish mexanizmlarning, elovchi mashinalarning va boshqalarning ishlab chiqarish samaradorligi oshiriladi. Oqsil-vitaminli qo'shimchalar ishlab chiqarishda mashina ishchi organlarining texnik harakteristikasi xuddi omixta yem ishlab chiqarishdagidek koladi. Granulalash jarayonining ba'zi parametrlari o'zgaradi, chunki oqsil-vitaminli qo'shimchalar tarkibida protein miqdori nisbatan ko'p.

Yirik shoxli hayvonlar uchun oqsil-vitaminli qo'shimchalarni karbamid kontsentratlari bilan birga ishlab chiqarish keng tarkalgan. Karbamid kontsentrlarni qo'shimcha ishlov bermay dozator osti bunkerlariga uzatiladi va retsept asosida dozalanadi.

OVK kogosli koplarga yoki IV katiyog'oriyadan past bo'lmagan matoli koplarga kadoklanadi. OVKni saqlash muddati ishlab chiqilgan vaqtdan boshlab sochma OVK uchun – 2 oy, granulalangan OVK uchun 3 oy davomida saqlanadi.

5.2. Pryemikslarni ishlab chiqarish

Zamonaviy chorvachilik omixta yem sanoatidan shunday mahsulot ishlab chiqarishni talab qiladiki, qaysiki bu mahsulot tabiat va hayvonlarni birlashtiruvchi buginga aylansin. Bu narsa hayvonlarning atrof-muhitdan ajralganini, yil davomida yopik joylarda turishi bilan tushuntiriladi.

O'simliklardan va hayvonlardan kelib chikkan ozuqalarda hayvonlar uchun kerakli bo'lgan ozuqa moddalarni to'la miqdorda koplamaydi. SHuning uchun omixta yemga va ozuqa ratsionlariga biologik faol modda (BFM) larning kiritilishi yemlarning samaradorligini oshiradi. Natijada hayvonlarning mahsuldorligi o'sadi, sogligining holati yaxshilanadi.

SHunday qilib, oqsillar, uglevodlar va yog'lar bo'yicha muvofiqlashtirilgan omuxat yem hayvonlar mahsuldorligini 10...12% ga oshiradi. Biologik faol moddalar: vitaminlar, aminokislotalar, mikroelyementlar, fermentlarning kiritilishi natijasida Oe ning samarodligi 25..30% ga oshadi, ya'ni bir vaqtda chorvachilik mahsulotlarining sifati oshib, tannarxining pasayishi kuzatiladi.

Moddalar almashinuvini me'yorlashtiruvchi va hayvonlar sogligini saklovchi kushimachlar sifatida ko'plab moddalar juda kam miqdorda 0,001 % aniqlikda kiritiladi. Bunday qo'shimchalarni ham biologik, ham texnik sabablarga kura aloxida har birini kiritib bo'lmaydi. SHuning uchun bunday qo'shimchalar omixta yemga pryemikslar ko'rinishida kiritiladi. Pryemikslar turli hayvonlar va kushlar uchun komponentlarning ma'lum miqdoridan foydalangan holda ishlab chiqariladi.

5.3. Pryemikslar uchun qo'llaniladigan xom ashyo turlari.

Pryemikslarni ishlab chiqarish uchun turli xildagi xom ashyolardan foydalaniladi.

A vitamini (retinol) - buy ustirish vitamini. Omixta yemga karotin ko'rinishida (pichan, xvoy uni) kiritilib, moddalar almashinuvi va yukumli kasalliklarga chidamliligini oshiradi.

D vitamini (kal'tseferollar) - organizmda minerallar almashinuvini boshqaradi, uning asosiy manbai – nurlantirilgan ozuqa achitqilari, hamda D vitaminini saklovchi maxsus moyli preparatlardir.

E vitamini (tokoferol) - hayvonlarning bir me'yorda o'sishini ta'minlaydi, uning manbai – donli ekinlar (makkajuxori, suli, grechixa va boshqa) urugining ko'rtagi bo'lib, u omixta yemga 250 mglardan kontsentratsiyada kiritiladi.

V₁ vitamini (tiamin) - donli xom ashyolarda, kepakda bo'lib, ular normal nerv sistyemasining funktsiyasi uchun zarur.

V₂ vitamini (riboflavin) - oqsillarning hazm bo'lishini va yosh hayvonlar bo'yicha ustiruvchi vitamin.

Fermentlar (enzillar) - oqsilli moddalar bo'lib, ular oxirgi mahsulot tarkibiga kirmagan holda kimyoviy reaksiyani tezlashtiradi. Fermentlar ta'sirida o'simlik polimerlari (kletchatka) nisbatan oddiy uglevodli birikmalargacha parchalanadi.

Mikroelyementlar fermentlar, vitaminlar, garmonlar va boshqa moddalar tarkibiga kiradi. Pryemikslar ishlab chiqarishda mikroelyementlar tuzlar ko'rinishida kiritiladi: mis ko'porosi, mis karbonat, temir gidrosul'fat, kaliy yodat, rux karbonat, kobal't karbonat, kobal't xlorid. Ularning yetishmasligi hayvonlarda turli kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Aminokislotalar oqsil molekulasiining asosiy strukturali elyementlari biluib, oqsil tarkibida 20 ga yaqin aminokislotalar aniqlangan. SHularning yarmisi organizmda sintezlanib, yuqori mahsuldorlikni ta'minlaydi.

Ozuqa antibiotiklari. Tabiatda shunday mikroorganizmlar borki, ular yashash jarayonida boshqa mikroblarning o'sish va rivojlanishini ta'minlovchi moddalarni ajratadi. Bo'lar antibiotiklardir.

5.4. Pryemikslar ishlab chiqarish texnologiyasi.

Pryemikslar ishlab chiqarish texnologik syemasini tuzishda quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

- tozalagi, kimyoviy va biologik faolligi, fizikaviy va ta'm xossalari, chidamliligi, boshqa komponentlar bilan bog'liqligi;
- preparatlar faolligi, bunda iloji boricha yuqori faolli preparatlar tanlanadi;
- fizik xossalari (kiritiladigan miqdoriga karab omixta yemning optimal dispersligi);
- issiklik va yoruglik ta'siriga chidamliligi, tuldiruvchilarning zichligi va kimyoviy xossalari.

Pryemikslar ishlab chiqarishda tuldiruvchilar muhim ahamiyat kasb etadi. Makkajuxori yemlari, ozuqa achitqilari, don kepaklari yaxshi tuldiruvchilar hisoblanadi. ba'zi zavodlarda tuldiruvchi sifatida namligi 10 % bo'lgan maydalangan bugdoydan foydalaniladi.

Pryemikslar tayyorlash jarayonida birinchi navbatda aralashtirgichga tuldiruvchi, sung esa biologik faol moddalar kiritiladi.

Pryemikslar ishlab chiqarish texnologik jarayoni quyidagi liniyalarda amalga oshiriladi: tuldiruvchni tayyorlash, mikroelyementlar tuzlarini tayyorlash, suyak komponentlarni kiritish, komponentlar va tuldiruvchini dozalash-aralashtirish, tayyor mahsulotni chiqarish va kadoklash.

5.5. Pryemikslar ishlab chiqarish liniyalari

Texnologik liniyalar barcha turdagi qishloq xo'jalik hayvonlari uchun pryemikslar ishlab chiqarishga imkon beradi.

Tuldiruvchini tayyorlash liniyasi tuldiruvchini qabul qilish, byog'ona va metallomagnit aralashmalardan ajratish, kuritish va maydalash uchun muljallangan. Metallomagnit aralashmalar elektromagnit separatorlarida yoki magnit kolonkalarda, byog'ona aralashmalar esa elovchi mashinalarda ajratiladi.

Tuldiruvchining namligi 8 % dan oshganda kurtishga yuboriladi. Kuritilgan tuldiruvchi teshik diametri $\varnothing$ 1,2 mm bo'lgan elak elanmasi bilan tavsiflanuvchi yiriklikkacha drobiklarda maydalanadi. YOg bilan ishlov berilgan (kepak uchun 3 %, maydalangan don uchun 2 % va achitki uchun 1 %) tuldiruvchi dozator osti bunkerlariga, sung dastlabki aralashma tayyorlash liniyasiga uzatiladi.

Mikroelyementlar tuzlarini tayyorlash liniyasi. YAxshi sochiluvchan mikroelyementlar tuzlari dozator osti bunkerlariga yuboriladi. Yuqori gigroskopli va yopishgan hamda maydalashni talab qiladigan tuzlar 2 usulda tayyorlanadi: tuzlarni kuritish va maydalash, ularni toza holda kiritish; kuritilgan tuldiruvchi bilan aralashtirish va aralashmaga kiritish.

YOgni ishlov berib kiritish liniyasi tuldiruvchiga barkaror ozuqa yogini tayyorlash va kiritish uchun muljallangan. Liniya tuldiruvchi va operativ bunkerlari, yogini isitish, xaydash, tozalash va dozalash kurilmalari bilan jixozlangan. YOg bunkerlari uni eritilgan holatda bo'lishini ta'minlash uchun issik suv (95°S) qo'ylagi bilan jixozlangan. YOg uzluksiz ishlovchi aralashtirgichga kiritiladi.

Dozalash liniyasi da ko'p komponentli tarozili dozator urnatilgan bo'lib, pryemiks ishlab chikuvchi zavodlarda 4 ta tuguni kuzda to'tilgan. Dozalashning har bir davri (tsikli) 1000 kg bo'lib, 17 mino't davomida tuldiriladi. Mikrokomponentlar esa 9...12 mino't davomida dozalanadi.

Aralashtirish liniyasi pryemikslar ishlab chiqarish jarayonini tugatadi. Liniya dastlabki va oxirgi aralashtirishdan iborat. Bir portsiya (partiya) pryemiks tayyorlash davri 17 mino'tga: aralashtirgichning tulishiga 3 mino't, aralashtirishga 8 mino't, yuklashga 3 minukt va qo'shimcha (zaxira) vaqti 3 mino'tga teng.

Mahsulotni kadoklash liniyasi. Pryemikslar 20 kg vaznda 4 katlamli kogoz koplarga kadoklanib, har bir kopga mahsulot nomi, retsept rakami, ogirligi, tayyorlash vaqti ko'rsatilgan etiketka yopishtiriladi. Tayyor pryemiks omixta yem zavodlariga 0,5...1,0 % miqdorda omixta yem kiritilishi uchun uzatiladi.

5.6. Karbamid konsentratlari ishlab chiqarish.

Karbamid konsentratlaridan foydalanish noyob oqsilli xom ashyolarni tejashga olib keladi. Karbamid konsentratlari ishlab chiqarish jarayonining mohiyati quyidagilardan iborat. Maydalangan don (75 %), karbamid (20 %), natriy tentonit kukuni (5...7%) aralashmalari ekstruder orqali o'tkaziladi. ekstruderda aralashma bosim va ishkalanish kuchlari ta'sirida harorati 150°S gacha ko'tariladi. Aralashma ekstruderning birinchi seksiyasidan ikkinchi seksiyasiga o'tishda bosim va haroratning oshishi kuzatiladi. Bunda aralashma komponentlarining fizik xususiyatlari uzagrib, eritilgan karbamidning don kraxmaliga kirib borishi va kraxmalning qisman jelatinlanishi (50 % gacha), namlikning ajralishi sodir bo'ladi.

Yemga karbamid kontsentratsiyasining kiritilishi kovshovchi hayvonlar uchun karbamid gidrolizlanishining sekinlashuvini va uning oson hazm bo'lishini ta'minlaydi. Karbamid kontsentratlari yormacha yoki granula ko'rinishida ishlab chiqariladi. Karbamid kontsentratsiyasini ishlab chiqarishning texnologik jarayoni quyidagi operatsiyalarni uz ichiga oladi: donli xom ashyoni, karbamid va 'entonitlarni tayyorlash, aralashma komponentlarini dozlash; olingan kontsentratlarni sovuq qilish, kontsentratsiyani maydalash, mahsulotni kadoklash va uzatish.

Karbamid kontsentratsiyasining chegaraviy saqlash muddati xavo harorati 25⁰S gacha va nisbiy namligi 75 % dan yuqori bo'lmagan sharoitda – 3 oygacha.

5.7. Dag'al xom ashyodan ozuqa aralashmalarni ishlab chiqarish.

Yorma zavodlarining chiqindilari asosan yirki shoxli hayvonlar va qo'ylar uchun ishlatiladi. Arpa, suli va sholilardan yorma olishda ma'lum miqdorda luzga olinadi, makkajuxorini yanchishda so'talar koladi. Yorma ishlab chiqarish sanoatining shu va boshqa chiqindilari tayyorlangan va ma'qullangan tarzda chorva uchun yaxshi yem hisoblanadi. aniq bir ozuqa qiymatiga ega bo'lgan dag'al ozuqalar oqsilga boy yemas.

Dag'al yemlar asosida ozuqa aralashmalari tayyorlanib, ularning ozuqaviy qiymatini oshirish maqsadida bor bo'lgan miqdoriga karab kepaklar, muchka, donli chiqindilar, shrot, melassa, mineral qo'shimchalar – bur, tuz va pryemikslar kushiladi. Melassa yemning ozuqa qiymatini oshiradi, ta'm xossalarini yaxshilaydi hamda granulalashda boglovchi modda vazifasini bajaradi.

Ozuqa aralashmalari faqatgina kovshovchi hayvonlar uchun muljallanganligi sababli ular tarkibiga karbamid kiritish mumkin. Ozuqa aralashmaning ozshukaviyldigi omixta yemnikidan ancha past. Ular sochma holatda yoki kogosli va matoli koplarga kadoklangan holda saqlanadi. Ozuqa aralashmalar asosan ishlab chiqarilgan ryog'ionda qo'llaniladi va avtomobil transportda yaqin joylashgan fermer xo'jaliklariga tashiladi.

Ozuqa aralashmalarini ishlab chiqarish uchun muljallangan xom ashyolar texnik shartlarda keltirilgan alablarga mos kelishi keiak. Tayyor ozuqa aralashmalari organoleptik va fiziko-kimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha standartlarga muvofiq bo'lishi kerak.

5.8. Oqsil-vitaminli qo'shimchalar, omixta yem, ozuqa aralashmalari va pryemikslarning retseptlari.

Omixta yem komponentlari nomi va ularning foizlarda ifodalangan nisbatlari ko'rsatilgan retsept bo'yicha ishlab chiqariladi. Retseptlar hayvon turiga, yoshiga va yunaltirilgan maqsadiga karab ishlab chiqariladi.

Quyida omixta yemning bir necha retsepti keltirilgan. Otlar uchun to'liq ratsionli briketlangan retsept

komponentlar,	%
Pichan -	40,0
Suli -	30,0
Bugdoy kepagi -	13,0
Moles ozuqasi -	10,0
Melassa -	6,5
Bur -	0,25

Tuz - 0,25

1 kg omixta yemga 2,5 g mis sul'fati, 0,8 g kobal't xlorid, 1,0 g kal'tsiy yodisti kushiladi.

Yemizikli cho`chqa bolalari uchun omixta yem komponenti retsepti

Komponentlar

Makkajuxori	20,0
Arpali ozuqa uni	34,0
Sulili ouzka uni	8,0
Nuxat	10,0
Bugdoy kepagi	10,0
Kungabokar sikmasi	7,0
Quruq ozuqa achitkisi	2,0
Baliq uni	3,0
YOgsizlantirilgan so`t koldiklari	5,0
Bur	1,0

1 t omixta yemga 1,8 mln ME A vitamin, 15 g V, 20 mln ME RR, xominxlorid 500, V 0,09, D 0,92 mln ME, kobal't sul'fati 1,9 g, temir sul'fati 50, mis sul'fati 7, rux sul'fati 13, kaliy yoditi 1, biomitsin 30 g kushiladi.

Gushtga boqiladigan cho`chqa uchun oqsil-vitaminli qo`shimchalar retsepti.

Komponentlar %

Ismix

Kungabokar	30,0
Soya	15,0
Ozuqa achitkisi	20,0
Nuxat	14,0
Bugdoy kepagi	10,5
Bur	6,5
Tuz	4,0

1t OVK ga 6 mln ME A vitamini, 0,006 V, 40 g biomitsin, temir sul'fati 200 g, mis sul'fati 30, rux sul'fati 60 g, kobal't sul'fati 20, kaliy yoditi 4 g kushiladi.

OVK larni donli aralashmaga nisbatan 10-12 % miqdorda ishlatish tavsiya qilinadi. Mikroelyementlar tuz sul'fati yoki angidridli tuzlar ko`rinishida kiritiladi.

5.9. Retseptlarni tuzish va faydalanish tartiblari.

Har bir retseptga hayvon turidan bog`liq holda nomer berilgan. Har bir hayvon, parranda va baliq turi uchun ma`lum unlik belgilangan: tovuq uchun 1 dan 9 gacha, kurka uchun 10 dan 19 gacha, urdak uchun 20 dan 29 gacha, goz uchun 30 dan 39 gacha, boshqa kushlar uchun 40 dan 49 gacha, cho`chqa uchun 50 dan 59 gacha, yirik shoxli hayvonlar uchun 60 dan 69 gacha, otlar uchun 70 dan 79 gacha, qo`ylar uchun 80 dan 89 gacha, qo`yon va no`triyalar uchun 90 dan 99 gacha, momiq hayvonlar uchun 100 dan 109 gacha, baliq uchun 110 dan 119 gacha 6 prodo`tsentlar va laboratoriya hayvonlar uchun 120 dan 129 gacha.

Urnatilgan unlik qiymatda retseptlarga hayvon, parranda, baliqlar guruxi bo`yicha tartib nomeri beriladi: masalan 1-tuxum beriladigan tovuqlar, 2-10 dan 30 kungacha bo`lgan yoshdagi jujalar, 3-31 kundan 60 kungacha va undan katta bo`lgan yosh tovuqlar uchun.

Retsept nomerlanishi 2 ta rakam bilan belgillanadi, undan birinchisi bu hayvon turi va guruxi, ikkinchisi-retsept nomeri.

Ikki qiymat ham yonma yon defis orqali qo'yiladi. Omixta yem turi bosh harflar bilan belgillanadi: PK-to'liq ratsionli, K-omixta yem -kontsentrat: OVK - oqsil vitaminli qo'shimchalar; P-pryemiks, ZTSM-ona so'ti urinbosari.

5.10. Retseptlarni tuzishda eXMdan foydalanish.

Omixta yemni kat'iy retsept asosida ishlab chiqarishning hamma vaqt ham imkoni bo'lavermaydi, chunki ba'zi turdagi komponentlar bo'lmasligi mumkin. Bu paytda bir komponentni boshqasi bilan almashtirishga ruxsat beriladi. Birok komponentlar barcha ko'rsatkichlari bo'yicha bir xil bo'lavermaydi, shuning uchun bir kator almashtirishlardan keyin omixta yemning ozuqabopligi, aloxida moddalar miqdori va elyemetlar uzgarishi mumkin. Standart retseptlar ham shuningdek hamma vaqt ham sifati va tan narxi bo'yicha yaxshi variant bo'lavermaydi, chunki komponentlar sifat ko'rsatkichi bo'yicha barkaror yemas. Buning natijasida korxona sifati bo'yicha barcha talablarni koniktirmaydigan yoki omixta yem tannarxini oshiradigan aloxida ozuqa moddalarning miqdori yuqori bo'lgan omixta yem ishlab chiqaradi.

Odatdagicha hisoblashda sifat bo'yicha barcha ko'rsatkichlarni amaliy e'tiborga olish iloji yuk. SHuning uchun hozirgi paytda retseptlarni hisoblashda mavjud xom ashyoni, uning bahosini, sifat ko'rsatkichlarini, omixta yemga kushish bo'yicha chegaralarini, omixta yemning sifat ko'rsatkichlari va boshqalar uchun elektron hisoblash mashinasi ishlatiladi.

Retseptlar chizikli dasturlash asosida hisoblanadi. Omixta yem retseptlarini X komponentlardan tuzish lozim. Har bir $X_1, X_2, X_3, \dots, X_p$ komponentga $a_1, a_2, a_3, \dots, a_4$ ozuqa birlikdagi ozuqa qiymatlari mos keladi; hazm bo'luvchi oqsillarning miqdori $v_1, v_2, v_3, \dots, v_p$ ga mos; ho'l kletchatka $S_1, S_2, S_3, \dots, S_p$ komponent birligi bahosi - $d_1, d_2, d_3, \dots, d_p$.

Omixta yem retsepti bir kator chegaralashlardan kelib chikkan holda hisoblanadi. Proteinning miqdori V_{min} dan kam bo'lmasligi va B_{max} dan ko'p bo'lmasligi kerak, ozuqa qiymati ozuqa birligidan kam bo'lmasligi, kletchatka birligi S dan ko'p bo'lmasligi va hokazo. Bundan tashqari retsept bahosi minimal bo'lishi kerak.

SHuningdek aloxida komponentlarni maksimal kushishdagi chegaralashni beradi. Bo'larning barchasi asosida quyidagi tenglama sistyemasi tuziladi:

$$X_1 + X_2 + X_3 + \dots + X_p = 100 \%;$$

Keltirilgan tenglamani birgalikda echgan holda X_1, X_2, X_3 va hokazolarning qiymatlari aniqlanadi va omixta yem retseptlari olinadi.

Hisoblash uchun eXMni qo'llash defitsit xom ashyosining sarfini kamaytiradi, ba'zi komponentlarning yukligi uchun sodir bo'ladigan buzilishlarni kamaytiradi, kam harajatli omixta yem olishga imkon beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Oqsil-vitaminli qo'shimchalarni ishlab chiqarish texnologiyasini tavsiflang.
2. Pryemikslar qanday ishlab chiqariladi?
3. Pryemikslarni ishlab chiqarishda qanday xom ashyolar qo'llaniladi va ular qanday liniyalarda tayyorlanadi?

4. Karbamid konsentratlari ishlab chiqarish texnologiyasi qanday boskichlardan iborat?
5. Retsept nima?
6. Retseptlar qanday tartibda tuziladi va rakamlanadi?
7. Retseptlarni tuzishda eXM dan qanday foydalanish kerak?

Tayanch iboralar:

Oqsil-vitaminli qo`shimchalar, pryemikslar, karbamid konsentratlari, dag`al xom ashyo, ozuqa aralashmalari, retsept, retseptni tuzish.

Mavzu № 6. QISHLOQ XO`JALIK HAYVONLARINING ZAHARLANISHI VA ULARNING OLDINI OLISH YO`LLARI.

Reja.

- 6.1. Oziq toksikozlari
- 6.2. Zaharlashda umumiy yordam ko`rsatish yo`llari
- 6.3. Pestitsid va ugitalar bilan zaharlanish
 - simobli organik preparatlar bilan;
 - mish`yak preparatlari bilan;
 - ftor preparatlari bilan;
 - fosfor birikmalari bilan;
 - fosforli organik birikmalar (FOK) bilan;
 - xlorli organik preparatlar bilan;
 - tsianidlar bilan;
 - mis preparatlari bilan;
 - mineral ugitalar bilan;
 - kaliy ugitalari bilan
- 6.4. Oziqli kushilmalardan noto`g`ri foydalanishdan kelib chiqadigan zaharlanishlar.
- 6.5. Oziqni noto`g`ri tayyorlash va ishlatishdan kelib chiqadigan zaharlanishlar
- 6.6. Hayvonlarning qayta ishlashdan olingan mahsulotlar bilan zaharlanishi
- 6.7. Oziq mikotoksikozlari
- 6.8. Zaharli o`simliklar bilan zaharlanish
- 6.9. Hayvonlarda zaharlanishning oldini oladigan umumiy talablar

Adabiyotlar:

1. J.SHopulatov. Veterinariya asoslari, T.: Mexnat, 1993 y.
2. A.M.Kolesov, P.N.Krashyonninikov, I.I.Tarasov. CHorva mollarining yukumsiz ichki kasalliklari, T.: Ukituvchi, 1979 y.

6.1. Oziq toksikozlari

Organizmga oziq, suv, xavo bilan tushadigan zaharli moddalar kuzgaydigan yukumsiz kasalliklarni zaharlanish, oziq toksikozlari deb atash qabul qilingan.

Oziq toksikozlari chorvachilikka katta zarar etkazadi. Zaharlanish organizmda umumiy rezistentlikka ta`sir etadi, hayvonlar infektsiyaga ko`proq moyil bo`lib

koladilar. YOsh mollar o'sish va rivojlanishdan koladi, ularning bir kecha – kunduzdagi o'sishi kam bo'ladi, bugoz hayvonlar ko'pincha bola tashlaydi.

Zaharlanishda hayvon mahsuldorligi kamayadi, mahsulot sifati yomonlashadi. Majburan suyilgan hayvonlarning gushtini iste'mol qilish odamlar sogligi uchun xavf tugdiradi.

Etiologiyasi. Oziq taksikozlarining sababalari va ularning paydo bo'lish sharoiti har xil. Ular hayvonlarni molxonada, yozgi yaylovlarda bokkanda ham kuzatiladi. Oziq taksikozlari chorvachilik komplekslarida ham uchrab turadi.

Agrotexnika va urmon xujaligida xaligacha o'simliklarni ximoya qiluvchi kimyoviy moddalardan keng foydalaniladi. Ba'zi kimyoviy moddalar tuprokda, suvda, oziqli usimliklarda tuplanib uzok vaqt saqlanadi. Bunda yovvoyi hayvonlar, baliqlar, foydali xasharotlarning yoppasiga zaharlanish xavfi tugiladi. Bo'larning hammasi ekologik va genetik qonuniyatlarga salbiy ta'sir qiladi.

Taksikozlarning patogenezi xaddan tashqari murakkabligi bilan farq qilib, faqatgina zaharning xususiyatlari yemas, balki uning ta'siriga karishi organizmining re6aktsiya bilan ifodalanadi. Zaharlar bir vaqtda har xil organ va sistyemalarga ta'sir qiladi, ulardan ko'pchiligi intibotorlar eki aksincha, fermentlar sistyemasining aktivatorlari bo'ladi, organizmda moddalar almashinuvini chukur uzgartiradi.

Zaharlar ta'siriga organizmning sezuvchanligi bir xil yemas. U hayvonning turiga, yoshiga, uziga xos xususiyatlariga, umumiy holatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, mineral – vitamin, oqsil, uglevod yetishmovchiligi va ular bilan bog'liq bo'lgan moddalar almashinuvining buzilishi, hayvonlarning zaharli moddalarga bo'lgan sezuvchanligini ancha oshiradi.

6.2. Zaharlashda umumiy yordam ko'rsatish yo'llari

Kechiktirib bo'lmaydigan birinchi yordam hayvonlarga ko'pincha diagnost aniqlanguncha ko'rsatiladi. Birinchi navbatda organizmdagi zaharli moddani oshkozonini yuvib, surgi va kustiradigan dorilarni qo'llab, ichaklardan chiqarib tashlashga karatiladi. Zaharlarning tukimaga shimilishini sekinlashtirish uchun hayvonlarga adsordlaydigan va urab oladigan moddalarni berish (hayvon kumiri, so't, tuxum oqsili, zigir urugidan kaynatma vua boshqalar) zarur.

Barcha, zaharlanishlarda bir kancha etiologik guruxlarga bo'linadi: ulardan pestitsid va ugitar bilan zaharlanish, oziqqa kushiladigan kushilmalardan noto'g'ri foydalanishdan kelib chiqadigan zaharlanishlar, oziq va o'simliklarni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlar bilan zaharlanish, mikotoksikozlar, zaharli o'simliklar bilan zaharlanishlarni urganish birmuncha zarur.

6.3. Pestitsid va ugitar bilan zaharlanish

Hayvonlar uchun byog'ona o'tlarni yukotishda (gerbitsidlar), changalzorlarni kuritishda ishlatiladigan (arborotsidlar); urugli donni zaharlaydigan, barglarni tushirishda (defoliantlar); kanalarni kirishda (akaritsidlar); xasharotlarni uldirishda (insektitsidlar), mikroskopik zamburuglarni (fungitsidlar) va sichkonsimon kyemiruvchilarni yukotishda foydalaniladigan kimyoviy birikmalar; har xil dizenfektsiya qiluvchi vositalar, shuningdek, mineral ugitar (azotli, fosforli, kaliyli va boshqalar) foydalanish zaharlidir.

Simobli organiq preparatlar bilan zaharlanish. Bu preparatlar (granozan, merkuran va boshqalar) uruglarni zaharlash uchun ishlatiladi. Ular tashqi muhitga

chidamli, organizmida tuplanishda xususiyatiga ega (kumulyatsiya); markaziy nerv sistyemasini zararlaydi; baʼzi bir fermentlarni amal qiladi; moddalarni almashinuvini buzadi. Simob preparatlariga qoramollar juda sezgir, lekin boshqa turdagi hayvonlar ham zararlanishi mumkin.

Mish'yak preparatlari bilan zaharlanish. Mish'yak birikmalaridan mish'yak angidridi, natriy arseniti, kal'tsiy arseniti, protas, parij kuki va boshqalar, poliz, bog, dala zararkunandalari, xasharotlar, kanalar, sichkonsimon kyemiruvchilar bilan kurashda va urug'larni zaharlashda foydalaniladi. Zaharlanish dorilangan o`simliklarni hayvon eganda va parazitlar kasalliklarga qarshi hayvonlarni yoppasiga dorilaganda, chumiltirganda ruy beradi. Preparat eritmalar teridan tukimalarga oson kiradi.

Ftor preparatlari bilan zaharlanish. Ftor birikmalari natriy ftorid, natriy kryemneftorid, uralit, superfosfat va boshqalar qishloq xujaligi va kurulusida ishlatiladi. Zaharlanish yirik shoxli hayvon, qo`y, kamrok cho`chqa va boshqa turdagi hayvonlarda paydo bo`lishi mumkin.

Surunkali zaharlanish tuprokda ortikcha ftor saqlanadigan erlarda uchraydi.

Fosfor birikmalari bilan zaharlanish. Hayvonlar asosan sichkonsimon kyemiruvchi bilan kurashda ishlatiladigan rux fosfidi bilan superfosfat tarkibiga kiradigan kal'tsiy fosfat ta'siirda zararlanadi.

Fosforli organiq birikmalar (FOB) bilan zaharlanish. O`simlik zararkunandalari bilakn kurashda pestitsid va insektitsid sifatiga FOB ishlatiladi. Zaharlanish FOB preparatlari bilan ishlangan o`simliklarni eganda va parazitlar kasalliklarga karshi hayvonlarni xlorofos, karbofos, trixlor – metafos hamda shu guruxdagi boshqa preparatlar bilan davolash hamda oldini olish ishlari olib borilganda ruy berishi mumkin.

Xlorli organiq preparatlar bilan zaharlanish (geksaxloran, polixlorpinen va boshqalar). Insektitsid sifatiga ishlatiladigan xlorli organiq preparatlar bilan zaharlanish hayvonlarga oziq bilan kam miqdorda takror tushishi natijasida paydo bo`ladi, chunki xlorli organiq preparatlari kumulyativ xususiyatga ega. Ular nerv sistyemasini shikastlaydi, nafas olish fermentlarini blokada qiladi, oksidlanish jarayonlari va moddalar almashinuvini buzadi.

TSianidlar bilan zaharlanish hayvonlar asosan pestitsidlar (natriy tsianidi, tsianimid, tsianplav va boshqalar), shuningdek, sinil' kislotasini tuplash kobiliyatigaega bo`lgan o`simliklarni (sudan o`ti, sorgo, kizil beda, lev posevnoy, zveroboy, gulyavnik va boshqalar) eganda zaharlanadi.

Mis preparatlari bilan zaharlanish. Mis ko`porosi, bordos suyukligi va michsning boshqa preparatlari bilan zaharlangan don ishlatilganda, shunipngdek, soyasimon dukkakli kunjara bilan hayvonlarni uzok muddat oziqlantirganda hamda mikroelyementlarni ishlatishda, ayniksa, gel'mintsizlantirishdae mis preparatlarini noto`g`ri dozada qo`llaganda kuzatiladi.

Mineral ugitlar bilan zavharlanish. Mineral ugitlarni saqlash va ishlatish koidalarini buzganda, hayvonlar yoppasiga zaharlanishi mumkin. Bu kasalliklarning paydo bo`lishiga hayvonlar organizmida mineral moddalar yetishmovchiligiga sharoit yaratadi.

Azotli ugitlardan ammoniy nitrat hamda natriy va kaliy nitratlar bilan zaharlanish ko`proq xavf tugdiradi.

Kaliy ug'itlar bilan zaharlanish. Kaliy xlorid, kaliy sul'fat va boshqalar bilan zaharlanish organizmda mineral moddalar yetishmaganda, asosan karamollar tez – tez uchrab turadi.

6.4. Oziqli kushilmalardan noto'g'ri foydalanishdan kelib chiqadigan zaharlanishlar.

Osh tuzi bilan zaharlanish. Osh tuzi - barcha turdagi hayvonlar ratsionining tarkibiy qismidir, lekin ular oziqda ortikcha bo'lishi zaharlanishga olish kelishi mumkin. Tuzlarga ayniksa cho'chqa, parranda va ba'zi bir turdagi muynali hayvonlar (norka, sobol') sezuvchandir. Ulinga olib keladigan zaharlanish cho'chqalarda 1,5 – 2 g/kg, 4 – 6 oyliklarida esa 0,5g/kg dozada eganda kuzatiladi.

Oshkozonda tuzning yuqori kontsentratsiyasidan uning shillik pardalari yalliglanadi, konda natriy xloridning ortikcha bo'lishidan esa izotonik hamda bir va ikki valentli kationlar orasidagi tenglik munosabati buziladi, natijada nerv markazlari kattik kuzgaladi, organizmda boshqarilish buziladi, gyemoglobin paydo bo'ladi.

Mochevina bilan zaharlanish. Sintetik mochevinani (karbamid) kavsh qaytaruvchi hayvonlarga ratsionda protein yetishmaganida, oqsil urnida beriladi. Katta korinda ureaza fermenti ta'sirida mochevina ammiak va karbonat angidridiga parchalanadi. Ammiakdagi azot katta korin mikroflorasi tomonidan uzlashtirilib, hayvonlar uchun foydali to'liq qiymatli oqsil sintezlanadi. Hosil bo'lgan mikroorganizm tanachalari oqsil sifatida organizm tomonidan uzlashtiriladi. Ushbu jarayon katta korinda eruvchi uglevodlar miqdori etarli bo'lganidagina normal holatda boradi. Karbamid miqdori ko'payib ketgan katta korinda hazm qilish jarayoni buzilib, hayvonlarning jigari zararlanadi. Bunday o'tkir zaharlanish ko'pincha ulimga olib keladi.

6.5. Oziqni noto'g'ri tayyorlash va ishlatishdan kelib chiqadigan zaharlanishlar

Molga beriladigan lavlagidan zaharlanish. Cho'chqalar eppasiga zaharlanish pishirilgan eki buglangan lavlagini asta – sekine sovuganidan keyin berilganda paydo bo'lishi mumkin.

Pishirilgan lavlagi asta – sekin sovo'tilganda nitritlaydigan bakteriyalar tuplanib hayvonlarni zaharlashi mumkin.

Zaharlanish yemon pishirilgan, termik ishlangandan keyin ochik holda 3 – 6 soatdan kur turib kolgan va ifloslangan lavlagini, ayniksa 12 soatdan keyin edirganda kuzatiladi. Keyinrok lavlagining zaharli xususiyatlari asta – sekin yukoladi.

Kand lavlagidan zaharlanishi. Kand lavlagi uglevodlarga boy. Sigirlarga 12 - 15 kg kand lavlagi edirilganida, hayvon o'rtacha 5 kg gacha kand oladi, bu esa zaharli doza bo'lib, organizmni zaharlaydi.

Oldini olish. Kand lavlagini ortikcha edirmaslik (har kuni bir molga 10 – 12 kg dan ko'p bo'lmasin) kerak. Davolashda ratsiondan kand lavlagini chiqarib tashlaydilar. Ichishga surgu tuzlari shilimshik kaynatmalar, 3% li natriy ridrokarbonatdan 1 – 2 l, 0,1% li kaliy permanganatdan 5 l gacha beriladi venaga 5% li natriy xlorid eritmasi kofein bilan, teri ostiga – insulin yuboriladi.

Kora mollarning makkajuxori bilan zaharlanishi. Hayvonlarni makkajuxori dalalarida bokkanda va yashil makkajuxorining so'tasi bilan dumbo'l paytida oziqlantirgandan paydo bo'ladi.

Etiologiya va patogenezi. Bu taksikozning moyxoyati xali to'liq aniqlangan yemas. Makkajuxori so'talari dumbo'l paytida kattak korinda bijgib, ko'p miqdorda so't kislotasi, uchuvchan yog' kislotalarini hosil qilib, atsidozga olib keladi.

Oldini olish. Uchun hayvonlar makkajuxori dalalarida boqilmasligi, sovuq urgan, muzlagan makkajuxori, yangi juxori so'talarini dumbo'l vaqtida edirmaslik kerak. Budan so'talar hayvonlarga faqat kuritilgandan keyin beriladi.

Sigir va qo'ylarining lavlagi jomidan zaharlanishi. Zaharlanishning sababi bajgigan, mogor bosgan, eski jom bilan oziqlantirishdir. Ko'p miqdorda yog', sirka, so't kislotasini saqlaydigan jom, katta korin hazmini ishdan chiqarishi, moddalar almashinuvi buzilishi, ketozi va oziq taksikoziga olib kelishi mumkin.

Oldini olish. YAngi, sifatli jom ishlatiladi. Uni to'la kimmatli ratsion tarkibida, chegaralangan miqdorda ediriladi. Kasal hayvonlar ratsionidan jom chiqarib tashlanadi, mineral kushilmalar ko'paytiriladi. Harorat ko'tarilganida antibiotiklar beriladi.

Kartoshka bilan zaharlanish. Usgan va qisman buzilgan kartoshka, kartoshka poyasi, kartoshka puchogi, shuningdek, buzilgan kartoshkadan tayyorlangan bardadan tuplangan glikoalkaloid solingan bo'ladi.

Oldini olish. Ratsiondan kartoshka va uning qayta ishlangan mahsulotlari ishlab chiqariladi eki kamaytiriladi, dag'al oziq va kontsentratlar ko'paytiriladi. Kartoshka bardasini faqat yangi holda, albatta mineral tuzlar (bur, monokal'tsiy fosfat, trikal'tsiy fosfat) kushib beriladi. Zaharlanishning o'tkir hollarida oshkozon yuviladi, surgi dorilar, shilimshik kaynatmalar, tanin, natriy gidrokarbonat eritmaları beriladi, venaga kofein yuboriladi.

6.6. Hayvonlarning qayta ishlashdan olingan mahsulotlar bilan zaharlanishi

Sanoatda qayta ishlashdan olingan mahsulotlardan jom barda, shrot va boshqalar oziq sifatida keng ishlatiladi. Ammo bu mahsulotlarda ko'pincha zaharli moddalar bo'ladi. Ular hayvonlarni eppasiga zaharlashi mumkin. Hayvonlar kanakunjo't kunjarasi (ritsin alkaloidi, toksal'bumin va boshqa zaharli moddalar bo'ladi), xantal va indov urugidan tayyorlangan kunjara (singrin, amilli xantal moyi) va paxta kunjarasidan zaharlanishi mumkin.

Paxta kunjarasini chegaralangan miqdorda, to'liq qiymatli ratsion asosida berilish kerak, ular kichik eshdagi mollar ratsioniga kushilmaydi. Kunjara oziq uchun ishlatishdan oldin undagi gissipol miqdori aniqlanadi, zarur vaqtda pishirib, oxakning ishkori eritmasi kushiladi, shuningdek, boshqa usullar bilan zararsizlantiriladi.

6.7. Oziq mikotoksikozlari

Mikroskopik zamburuglar (mikomitsetlar) bilan zararlangan oziqlar bilan hayvon oziqlanganda kelib chiqadigan zararlanishga oziq mikotoksikozlar deyiladi. Mikotoksikozlardan chorvachilikka korakosov (klavitseptoksikoz), koraqo'ya (ustilagotoksikoz) kuzgatadigan kasalliklar, fuzariotoksikozlar, staxiobotriotoksikoz va buzilgan, mogorlangan oziqlar bilan zaharlanish eng ko'p zarar etkazadi.

Klavitseptoksikoz (erigotizm) da donli va kepaksimon oziqlar, don chiqindilari, bo'tun eki maydalangan koraqo'ya aralashgan omixta yem zaharlanish manbai bo'lishi mumkin. Kasallik hamma turdagi hayvonlarda uchraydi va u o'tkir hamda surunkali o'tadi.

O'tkir zaharlanishda sulak okish, ogiz bushligi shillik kavatining yalliglanishi, hazm bo'lishi, ich kyetishi, uykuchanlik, xolsizlanish, tomir tortish, falajlanishlar kuzatiladi, bugoz hayvonlarda bola tashlash paydo bo'ladi. Surunkali zaharlanishda tukima, dum, kuloklar, elin surgichlari, parrandalar – toji va xalkalarining quruq nekrozi kuzatiladi.

Ustilgotaksikoz va turishsimon zamburuglar bilan zaharlanish. Ba'zi bir turdagi koraqo'yalarning zaharli xususiyatlari ular tarkibida zaharli alkaloidlarning bo'lishidan iborat. Hayvonlar koraqo'ya zamburuglari bilan zaharlanganda ogiz bushligi shillik kavatining ta'sirlanishi va yalliglanish belgilari, sulak okish, yo'tal, yo'tishning kiyinlashishi, chaynov musqo'llarining tmoir tortib kiskarishi vak hazmning buzilishi, ich kyetish, kamrok ich kotish, kavsh qaytaruvchilardan oldingi korinlar atoniyasi, kavsh qaytarishning buzilishi va boshqa anormal uzgarishlar bo'ladi.

Ogir zaharlanishda umumiy kuchsizlik, kuz korachiklarining kengayishi, harakatning ishonchsizligi, ataksiya, bugoz mollarda bola tashlash kuzatilishi mumkin.

Turusimon zamburuglar bilan zaharlanish manbai – yashil oziqlar, ba'zan botkok o'tloklarning somonidir.

Fuzariotoksikozlar. Ikki xil shaklda namoyon bo'ladi – «p'yaniy xleb» fuzarion va Fusarium sporatichiella avlodiga kiruvchi zambu4ruglar bilan kuzgaladigan fuzariotoksikoz.

Fusarium sporatichiella saprofit zamburuglari zaharidan paydo bo'ladigan fuzariotoksikoz (alimentar toksikoz aleykiya) ushub zamburuglar bilan zararlangan don ham uning qayta ishlangan mahsulotlari (kombikorm, don chiqindilari), shuning dek, pichan, somon va boshqa oziqlar bilan oziqlanganda kuzatiladi. Eppasiga zaharlanish hollari erta bahor va kech kuzda hosili urib olingan dalalarda boqilgan hayvonlarda, shuningdek, dalada kor tagida kolgan don bilan oziqlantirilganda kuzatiladi.

Buzilgan, mogorlangan oziqlar bilan zaharlanish. Yuqori namlik va uz – uzidan kiziganda donli va boshqa oziqlar har xil zamburugli va bakterial flora bilan zararlandi.

Yuqori namlik va issikda oziqda tez rivojlanadigan aspergillarning yog` va suvda yaxshi eriydigan metobolitrari kuchli zahar xususiyatiga ega aspergill zamburuglar xaet faoliyatining zaharli mahsulotlari markaziy nerv sistyemasi,

6.8. Zaharli o'simliklar bilan zaharlanish

Zaharli o'simliklarni eb kasal bo'lish, ko'pincha bahorda, yaylov mavsumining boshida ruy beradi. O'simliklarda har xil biologik aktivlikka ega bo'lgan xilma – xil zaharli moddalar (alkoloidlar, glikozidlar, saponinlar, efir yog'lari va boshqalar) bo'lishi mu4mkin. Ko'pincha u yoki bu organlar hamda organizm sistyemalarining zararlanishi va kasallikning klinik belgilari namoyon bo'lishiga karab zaharlanish bir necha guruxga bo'linadi: nerv sistyemasiin zararlaydigan, hazm organlarini zararlaydigan zararlanish, gyemorragik diatez bilan namoyon bo'ladigan zaharlanishlar va boshqalar uchraydi.

Asosan nerv sistyemasini zararlaydigan zaharlanish. Markaziy nerv sistyemada kuzgalishni paydo qiladigan zaharlarga: krasovka, mingdevona, bangidevona, zaharli

vex, kakra va boshqalar kiradi. Tamgali shuvok, oddiy pijma, kirkbugim va boshqa o`simliklar zaxri vaqtda yurak-tomir hamda hazm sistyemasiga ta`sir qiladi.

Hazm qilish organlarining zaharlanishi. Oshkozon, ichak, jigarning zaharlanishi ixroj, ituzum, indov, xantal, mar'yannik, botkok ok kanoti, zarpechak, chirmovuk, korabugdoy, surepka, ayiktoyon va boshqa zaharli o`simliklarni egaknda yuz beradi. Ayiktoyonlar yangi vaqtda zaharli bo`ladi, kuro`tilganda yoki silos bostirganda ular bu xususiyatini yukotadi. Zaharlanganda hayvonlardan ko`p sulak okadi, otlarda sanchiklar, ich kyetish (kon bilan aralashgan), umumiy kuchsizlik, kaltirash, chalishib yurish; sigirlarda timpaniya, atoniya, gastroenterit belgilari paydo bo`ladi.

Davolash uchun kasal molning katta korini 0,1% li kaliy permanganat va ichimli soda eritmasi bilan bir kunda bir necha marta yuviladi. Ichishga shilimshik kaynatmalar, so`t beriladi, teri ostiga kofein yuboriladi.

Gyemorragik diatez ko`rinishida o`tdigan zaharlanishga koramik, kashkarbeda va boshqalar sabab bo`ladi.

6.9. Hayvonlarda zaharlanishning oldinini oladigan umumiy talablar

Bu maqsadda kompleks agronomik, tashkiliy – xo`jalik, zootexnik va veterinariya – sanitariya tadbirlari o`tkaziladi.

Oziq zaxiralarini patogen zamburuglar va boshqa mikroorganizmlardan, ifloslanish, buzilishdan saqlash, oziq takyyorlash va ularni saqlashda kompleks texnologik jarayonlaridan foydalanish va bu jarayonni uz vaqtda bajarish kerak. Qishloq xujaligini ximiyalashtirishda pestitsid va ugidlarni ishlatish maxsus ko`rsatma asosida bajarilishi shart.

Qishloq xujaligi xodimlari (agronomlar, mexanipzatorlar, zootexniklar, veterinariya xodimlari) o`simliklarni ximoya qilishda ishlatiladigan vositalarni saqlash va ishlatishda xatolikka yo`l qo`ymasliklari kerak.

Hayvonlarni zaharlanishdan saqlash va uning oldini olishda oziqlar sanitariya jixatdan organoleptik tekshiriladi.

Oziq moddalarni tayyorlash texnologiyasining to`g`riligiga, oziqlantirish gigienasi, oziq, yaylov o`tlari, suv manbalarining sifati va zararsizligini nazorat qilish, hayvonlarning pestitsidlar, ugidlari va boshqa zaharli moddalarni eb qo`yishdan extiyot qilish, zootexniklarni mo`taxassislaridan katta e`tibor talab qiladi.

Yaylovda boqilganda hayvonlarning zaharlanishiga karish tadbirlari – zaharli o`simliklarni yukotish, melioratsiya, tuproqni oxaklash, yuqori hosil beradigan oziqli o`simliklarni ekish bilan madaniy yaylovlar tashkil qilishdan iborat.

Hayvonlarni zaharlanishdan saqlash, oldini olishda tushuntirish ishlari, fan yo`tuklari va chorvachilikning ilgor tajribalarini targib qilish ham ma`lum ahamiyatga ega.

Takrorlash uchun savollar:

1. Hayvonlar organizmi nima sababdan zaharlanadi?
2. Zaharlanishning qanday turlari bor?
3. Zaharlanishning oldini oladigan qanday usullar mavjud?
4. Zaharlanishda umumiy yordam ko`rsatish yo`llarini ko`rsating

Tayanch iboralar:

Zaharlanish (oziq toksikozlari), oziq mikotoksikozlari, klavitseptoksikoz, umumiy patologiya.

«Texno-tasvir» bosmaxonasi
Buxoro sh. Q. Murtazoev ko'chasi 15 uy
513 xona. tel. 223-18-02
Buyurtma _____ nusxa
2008 yil.